

**O'zDJTU huzuridagi
RIAIM**

**O'quv-uslubiy
majmua**

Lotin tili yo'nalishi
tinglovchilari uchun

**O'quv-uslubiy
majmua**

2021

Lotin tili

3.4. Kommunikativ tilshunoslik va til kompetensiyalari

Mazkur o'quv - uslubiy majmua Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim vazirligining 2020 yil " 7 " dekabrdagi 648-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan o'quv reja va o'quv dasturiga muvofiq ishlab chiqilgan.

Tuzuvchilar: f.f.n, A. Yuldashev

Taqrizchi: f.f.n, R. Karimov

Ishchi o'quv dasturi O'zDJTU huzuridagi RIAIM Ilmiy-Metodik Kengashida tasdiqlangan (2020 yil "25" "dekabrdagi" 10 - sonli bayonnoma).

MUNDARIJA

I.	ISHCHI DASTURI.....	3
II.	MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA'LIM METODLARI.....	10
III.	NAZARIY MASHG'ULOT UCHUN MATERIALLAR.....	22
IV.	AMALIY MASHG'ULOT UCHUN MATERIALLAR.....	31
V.	KEYSLAR BANKI.....	82
VI.	GLOSSARIY.....	84
VII.	ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	91

I. ISHCHI DASTUR

Kirish

Dastur O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son, 2019 yil 27 avgustdagi "Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to'g'risida"gi PF-5789-son, 2019 yil 8 oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son va 2020 yil 29 oktyabrdagi "Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6097-sonli Farmonlari hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 10 dekabrdagi "CHet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1875-son hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentyabrdagi "Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 797-sonli qarorlarida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo'lib, u oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarining kasb mahorati hamda innovatsion kompetentligini rivojlantirish, sohaga oid ilg'or xorijiy tajribalar, yangi bilim va malakalarni o'zlashtirish, shuningdek amaliyotga joriy etish ko'nikmalarini takomillashtirishni maqsad qiladi.

Qayta tayyorlash va malaka oshirish yo'nalishining o'ziga xos xususiyatlari hamda dolzarb masalalaridan kelib chiqqan holda dasturda tinglovchilarning maxsus fanlar doirasidagi bilim, ko'nikma, malaka hamda kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar o'zgartirilishi mumkin.

Modulning maqsadi va vazifalari

Tinglovchilarning tilshunoslik yo'nalishi bo'yicha olgan nazariy bilimlarini yanada chuqurlashtirish, tilshunoslikka oid fundamental bilimlar asosini egallashiga ko'maklashish, jahon olimlarining tilshunoslik fani sohasida yaratgan muhim nazariy tadqiqotlarini tahlil qilishga o'rgatish, ularni dars jarayoniga samarali tatbiq etishga o'rgatish.

Modul mavzu va topshiriqlari

Kommunikativ tilshunoslik tushunchasi. CEFR va uning doirasida 4 kompetensiya: lingvistik, sotsiolingvistik, diskursiv va strategik kompetensiyalar. Til kompetensiyalarni o'qitish usullari: Greysning "xamkorlik prinsiplari" (Grice's cooperative principles), nolingvistik faktorlar (speech acts, intersubjectivity, social representation) va ularni o'qitish usullari. Kommunikativ grammatika va kommunikativ leksika. Grammatika va leksikologiyani diskurs doirasida o'qitish. O'qitishda konstruktivistik yondashuv. Til aktiv vosita sifatida (Metaphors we live by). "Aktiv til"ni o'qitish va baholash mexanizmlari. So'z va konsept. Konseptlarini interpretatsiya qilish va o'qitish.

Maxsus fanlar bo'yicha tinglovchilar quyidagi yangi bilim, ko'nikma, malaka hamda kompetensiyalarga ega bo'lishlari talab etiladi:

Tinglovchi:

- kommunikativ tilshunoslik tushunchasi bo'yicha tayanch nazariy va amaliy bilimlarni;
- kommunikativ kompetensiya tamoyillarini;
- CEFR va uning doirasida 4 kompetensiya: lingvistik, sotsiolingvistik, diskursiv va strategik kompetensiyalarni;
- tilshunoslik tarixida ro'y bergan paradigmalarning siljishi, antropotsentrikparadigma xususiyatlari va uning boshqa paradigmalardan farqli jihatlarini;
- zamonaviy lingvistik yo'nalishlari sohalararo fanlar ekanligi va boshqa fanlar bilan chambarchas bog'liqligi va munosabatlarini;
- zamonaviy lingvistik yo'nalishlari (Kognitiv lingvistika, Qiyosiy lingvomadaniyatshunoslik, Lingvopragmatika) anhanaviy tilshunoslikdagi fanlardan farqli jihatlarini;
- zamonaviy lingvistika yo'nalishlari fanining nazariy va amaliy yutuqlarini;
- zamonaviy lingvistik yo'nalishlaridagi turli nazariy qarashlar va yetakchi kontseptsiyalarini;
- so'zlashuvorqalikommunikativkompetensiyani o'rgatishni;

- tinglashorqalik kommunikativ kompetentsiyani o`rgatishni;
- yozishorqalik kommunikativ kompetentsiyani o`rgatishni;
- o`qishorqalik kommunikativ kompetentsiyani o`rgatishni;
- til obektiv borliq haqidagi bilimlarni aks ettiruvchi vosita ekanligi;
- til bilim olish va saqlash, uni amalda qo`llash va uzatish manbai, tafakkurni va insonning dunyoqarashini shakllantiruvchi vosita ekanligini;
- til turli xil bilim tuzilmalari va milliy-madaniy xarakterga ega bo`lgan mahlumotlarni aks ettiruvchi vosita ekanligini;
- madaniy kontsept, freym, kontseptual dunyo tasviri, lisoniy dunyo tasviri, milliy dunyo tasviri tushunchalari; kontseptual sistema va til sistemasi o`rtasidagi munosabatlar; olam va undagi narsalarni kategoriyalash va kontseptuallashtirish jarayonlarini;
- zamonaviy lingvistik yo`nalishlari sohasida bajarilgan tadqiqotlarda ilmiylik va manbalarga asoslanib fikr yuritish talablari haqida bilimga ega bo`lishi

Tinglovchi:

- tilshunoslikning nazariy aspektlarini sharhlash;
- tilshunoslik manbalari bilan ishlash;
- tilshunoslik vositalarini tilshunoslik nuqtayi nazaridan tahlil qilish;
- tilshunoslik tadqiqiga yangi ma'lumotlarni kiritish;
- tarjimada noyob so`zlarni qo`llash **ko`nikmasiga** ega bo`lishi kerak.

Tinglovchi:

- chet tilini o`qitishning xorijiy metodikasi tajribasini tahliliy o`rganish, umumlashtirish, ularning yutuqlaridan ta`lim jarayonida foydalanish;
- kommunikativ kompetensiyani aniqlash xususiyatlariga mos nazorat metodini tanlash;
- testlarning kommunikativ kompetensiya darajasini aniqlash, test tuzish, uning sifat va samaradorligini aniqlash mezonlari bilish;
- test natijalarini aniqlash va baholash mezonlarini ishlab chiqish va ta`limga joriy etish **kompetensiyalariga ega bo`lishi zarur.**

Modulni tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha tavsiyalar

“Kommunikativ tilshunoslik va til kompetensiyalari” kursi amaliy mashg‘ulotlar shaklida olib boriladi. Kursni o‘qitish jarayonida ta’limning zamonaviy metodlari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo‘llanilishi nazarda tutilgan:

- darslarda zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentatsion va elektron-didaktik texnologiyalardan;
- o‘tkaziladigan amaliy mashg‘ulotlarda texnik vositalardan, ekspress-so‘rovlar, test so‘rovlari, aqliy hujum, guruhli fikrlash, kichik guruhlar bilan ishlash, kollokvium o‘tkazish, va boshqa interaktiv ta’lim usullarini qo‘llash nazarda tutiladi.

Modulning o‘quv rejadagi boshqa modullar bilan bog‘liqligi va uzviyligi

“Kommunikativ tilshunoslik va til kompetensiyalari” moduli mazmuni o‘quv rejadagi diskurs tahlili o‘quv moduli bilan uzviy bog‘langan holda pedagoglarning til ko‘nikmalarini talab darajasida qo‘llay olish malakasini orttirishga xizmat qiladi.

Modulning oliy ta’limdagi o‘rni

Modulni o‘zlashtirish orqali tinglovchilar til ko‘nikmalarini mos ravishda amalda qo‘llash malakasi va kasbiy salohiyatlarini rivojlantiradilar.

Modul bo‘yicha soatlar taqsimoti

№	Modul mavzulari	Tinglovchining o‘quv yuklamasi, soat			
		Auditoriya o‘quv yuklamasi			Mustaqil ta’lim
		Jami	jumladan		
			Nazariy	Amaliy shgulot	

1.	Kommunikativ tilshunoslik tilshunoslikning zamonaviy yunalishi sifatida.	4	2		
2.	Kommunikativ kompetensiya tamoyillari	2		2	
3.	CEFR va uning doirasida 4 kompetensiya: lingvistik, sotsiolingvistik, diskursiv va strategik kompetensiyalar.	2		2	
4.	Kommunikativ grammatika va kommunikativ leksika	2		2	
5.	Tilni diskursiv yondashuvda o'qitish: matnning kognitiv-diskursiv tavsifiy xususiyatlari	2		2	
6.	So'z va kontsept: kontseptlarini interpretatsiya qilish va o'qitish.	2		2	
	Jami	12	2	10	

Nazariy mashg'ulotlar mazmuni

1-mavzu:Kommunikativ tilshunoslik tilshunoslikning zamonaviy yunalishi sifatida.

Muloqot mahorati tamoyillari (Beresova, J., Celce-Murcia, M. & Olshtain, E., Coupland, N., & Jaworski, A., Grice H.P, Matthews, P.H., Richards, C., & Rodgers T. S., Wardhaugh, R.). Tayanch tushunchalar: CEFR, communicative competence, linguistic / grammatical competence, sociolinguistic competence, pragmatic / discursive competence, and strategic competence.UXSD (Umumevropa xalqaro standarti darajalari). Muloqot mahorati, til/grammatika aspektlari, sotsiolingvistik mahorat, pragmatik mahorat, strategik mahorat.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *dialogik yondashuv, muammoli ta'lim, munozara, o'z-o'zini nazorat.*

Amaliy mashg'ulotlar mazmuni

2- mavzu: Kommunikativ kompetentsiya tamoyillari.

Til mahorati (kompetentsiyasi). Tayanch tushunchalar: Structured linguistics, sound image (signifier), mental image (signified), linguistic competence, form, meaning, and use. Struktural lingvistika, ovozli tasvir, aqliy tasvir, lingvistik kompetentsiya, shakl, mazmun.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *muammoli ta'lim, klaster, diagramma, munozara, o'z-o'zini nazorat.*

3- mavzu: CEFR va uning doirasida 4 kompetentsiya: lingvistik, sotsiolingvistik, diskursiv va strategik kompetentsiyalar.

Lingvistik, Pragmatik, Sotsiolingvistik, Strategik kompetentsiyalari.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *dialogik yondashuv, muammoli ta'lim, BBBI, munozara, o'z-o'zini nazorat.*

4- mavzu: Kommunikativ grammatika va kommunikativ leksika.

Kommunikativ kompetentsiyani tadqiq qilishning kommunikativ yo'nalishi. Kommunikativ kompetentsiyaning lingvistik va madaniy tadqiqot yo'nalishi. Kommunikativ-funksional grammatika, matnni tahlil qilish, kommunikativ registr, sintaksis, xayoliy bo'lmagan matn.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *dialogik yondashuv, muammoli ta'lim, BBBI, munozara, o'z-o'zini nazorat.*

5- mavzu: Tilni diskursiv yondashuvda o'qitish: matnning kognitiv-diskursiv tavsifiy xususiyatlari

Tilni o'rganish va o'qitishda diskursiv amaliyot.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *dialogik yondashuv, muammoli ta'lim, BBBI, munozara, o'z-o'zini nazorat.*

6- mavzu: So'z va kontsept: kontseptlarini interpretatsiya qilish va o'qitish.

“Aktiv til”ni o'qitish va baholash mexanizmlari. So'z va kontsept. Kontseptlarini interpretatsiya qilish va o'qitish.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *dialogik yondashuv, muammoli ta'lim, BBBI, munozara, o'z-o'zini nazorat*

O'qitish shakllari

Mazkur modul bo'yicha quyidagi o'qitish shakllaridan foydalaniladi:

- noan'anaviy o'qitish (interaktiv, konferensiya, debat);
- davra suhbatlari (muhokama etilayotgan muammo va uning yechimi bo'yicha mantiqiy xulosalar chiqarish);
- bahs va munozaralar (loyihalar yechimi bo'yicha dalillar va asosli raqamlar taqdim qilish, eshitish va muammolar yechimini topish qobiliyatini rivojlantirish).

II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL TA'LIM METODLARI


“SWOT-tahlil” metodi.

Metodning maqsadi: mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo'llarni topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandart tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.

S – (strength)	• kuchli tomonlari
W – (weakness)	• zaif, kuchsiz tomonlari
O – (opportunity)	• imkoniyatlari
T – (threat)	• tўsiqlar

Namuna: Filologik ta'limda tizimli tahlil imkoniyatlarini jadvalga tushiring.

S	Tizimli tahlilning kuchli tomonlari	Maksimal aniqlik bilan turli yondashuvlar asosida yuqori samaradorlikka erishish
W	Tizimli tahlilning kuchsiz tomonlari	Bo'sh, tarkiblanmagan matnlarga nisbatan qo'llab bo'lmaydi
O	Matnlar bo'yicha tizimli tahlil (ichki) imkoniyatlari	Matn shakllaridan kelib chiqib har bir komponentni mikrotahlildan o'tkazish
T	To'siqlar (tashqi)	Tizimli tahlil bo'yicha naza-riy bilimlarning etishmasligi



“Xulosalash” (Rezyume, Veer) metodi

Metodning maqsadi: Bu metod murakkab, ko‘ptarmoqli, mumkin qadar, muammoli xarakteridagi mavzularni o‘rganishga qaratilgan. Metodning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo‘yicha bir xil axborot beriladi va ayni paytda, ularning har biri alohida aspektlarda muhokama etiladi. Masalan, muammo ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari bo‘yicha o‘rganiladi. Bu interfaol metod tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda o‘quvchilarning mustaqil g‘oyalari, fikrlarini yozma va og‘zaki shaklda tizimli bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi. “Xulosalash” metodidan ma’ruza mashg‘ulotlarida individual va juftliklardagi ish shaklida, amaliy va ko‘chma mashg‘ulotlarida kichik guruhlardagi ish shaklida mavzu yuzasidan bilimlarni mustahkamlash, tahlili qilish va taqqoslash maqsadida foydalanish mumkin.

Методни амалга ошириш тартиби:



тренер-ўқитувчи иштирокчиларни 5-6 кишидан иборат кичик гуруҳларга ажратади;



тренинг мақсади, шартлари ва тартиби билан иштирокчиларни таништиргач, ҳар бир гуруҳга умумий муаммони таҳлил қилиниши зарур бўлган қисмлари тўлиқланган таркатма материалларни



ҳар бир гуруҳ ўзига берилган муаммони атрафлича таҳлил қилиб, ўз мулоҳазаларини тавсия этилаётган схема бўйича таркатмага ёзма баён қилади.



навбатдаги босқичда барча гуруҳлар ўз тақдимотларини ўтказадилар. Шундан сўнг, тренер томонидан таҳлиллар умумлаштирилади, зарурий ахборотлар билан тўлдирилади ва марбу

Namuna:

Filologik ta'limda tizimli tahlil					
Lingvopoetik tahlil		Struktural (tarkibiy) tahlil		Semiotik tahlil	
afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi
Xulosa:					

«Tizimlilik aloqadorligi»ni aniqlash.

O'zingizni tekshirib ko'ring

Harakatlar mazmuni	YAkka baho	YAkka xato	To'g'ri javob	Guruh bahosi	Guruh xatosi
Tizimning mohiyati					

Tizimli tahlil					
Tizimli yondashuv					
Gumanitar fanlar tizimi					
Tilshunoslik tizimi					
Adabiyotshunoslik tizimi					
Folklorshunoslik tizimi					

“Keys-stadi” metodi

«**Keys-stadi**» - inglizcha soʻz boʻlib, («case» – aniq vaziyat, hodisa, «stadi» – oʻrganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni oʻrganish, tahlil qilish asosida oʻqitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Mazkur metod dastlab 1921 yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruv fanlarini oʻrganishda foydalanish tartibida qoʻllanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqea-hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin. Keys harakatlari oʻz ichiga quyidagilarni qamrab oladi: Kim (Who), Qachon (When), Qaerda (Where), Nima uchun (Why), Qanday/ Qanaqa (How), Nima-natija (What).

“Keys metodi” ni amalga oshirish bosqichlari

Ish bosqichlari	Faoliyat shakli va mazmuni
1-bosqich: Keys va uning axborot taʼminoti bilan tanishtirish	<ul style="list-style-type: none"> ✓ yakka tartibdagi audiovizual harakat; ✓ keys bilan tanishish (matnli, audio yoki media shaklda); ✓ axborotni umumlashtirish; ✓ axborot tahlili; ✓ muammolarni aniqlash
2-bosqich: Keysni aniqlashtirish va oʻquv topshirigʻni belgilash	<ul style="list-style-type: none"> ✓ individual va guruhda ishlash; ✓ muammolarni dolzarblik ierarxiyasini aniqlash;

	✓ asosiy muammoli vaziyatni belgilash
3-bosqich: Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali o'quv topshirig'ining echimini izlash, hal etish yo'llarini ishlab chiqish	✓ individual va guruhda ishlash; ✓ muqobil echim yo'llarini ishlab chiqish; ✓ har bir echimning imkoniyatlari va to'siqlarni tahlil qilish; ✓ muqobil echimlarni tanlash
4-bosqich: Keys echimini echimini shakllantirish va asoslash, taqdimot.	✓ yakka va guruhda ishlash; ✓ muqobil variantlarni amalda qo'llash imkoniyatlarini asoslash; ✓ ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash; ✓ yakuniy xulosa va vaziyat echimining amaliy aspektlarini yoritish

Keys. Filologik ta'limda tizimli ko'rsatkich ishlab chiqiladi, mazkur metodning ijobiy va salbiy tomonlari qiyoslanadi va xulosa chiqariladi.

Кейси бажариш босқчилари ва топшириқлар:

- Кейсдаги муаммони келтириб чиқарган асосий сабабларни белгилаш (индивидуал ва кичик гуруҳда).
- Мобил иловани ишга тушириш учун бажариладагина ишлар кетма-кетлигини белгилаш (жуфтликлардаги иш).

«FSMU» metodi

Texnologiyaning maqsadi: Mazkur texnologiya ishtirokchilardagi umumiy fikrlardan xususiy xulosalar chiqarish, taqqoslash, qiyoslash orqali axborotni o'zlashtirish, xulosalash, shuningdek, mustaqil ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur texnologiyadan ma'ruza mashg'ulotlarida, mustahkamlashda, o'tilgan mavzuni so'rashda, uyga vazifa berishda hamda amaliy mashg'ulot natijalarini tahlil etishda foydalanish tavsiya etiladi.

Texnologiyani amalga oshirish tartibi:

- qatnashchilarga mavzuga oid bo‘lgan yakuniy xulosa yoki g‘oya taklif etiladi;
- har bir ishtirokchiga FSMU texnologiyasining bosqichlari yozilgan qog‘ozlarni tarqatiladi:



- ishtirokchilarning munosabatlari individual yoki guruhiiy tartibda taqdimot qilinadi.

FSMU tahlili qatnashchilarda kasbiy-nazariy bilimlarni amaliy mashqlar va mavjud tajribalar asosida tezroq va muvaffaqiyatli o‘zlashtirilishiga asos bo‘ladi.

Namuna.

Fikr: “Tilshunoslikda tizimli tahlil til – sistemadir qoidasiga amal qiladi”.

Topshiriq: Mazkur fikrga nisbatan munosabatingizni FSMU orqali tahlil qiling.

“Assesment” metodi

Metodning maqsadi: mazkur metod ta’lim oluvchilarning bilim darajasini baholash, nazorat qilish, o‘zlashtirish ko‘rsatkichi va amaliy ko‘nikmalarini tekshirishga yo‘naltirilgan. Mazkur texnika orqali ta’lim oluvchilarning bilish faoliyati turli yo‘nalishlar (test, amaliy ko‘nikmalar, muammoli vaziyatlar mashqi, qiyosiy tahlil, simptomlarni aniqlash) bo‘yicha tashhis qilinadi va baholanadi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

“Assesment” lardan ma’ruza mashg‘ulotlarida talabalarning yoki qatnashchilarning mavjud bilim darajasini o‘rganishda, yangi ma’lumotlarni bayon

qilishda, seminar, amaliy mashg'ulotlarda esa mavzu yoki ma'lumotlarni o'zlashtirish darajasini baholash, shuningdek, o'z-o'zini baholash maqsadida individual shaklda foydalanish tavsiya etiladi. SHuningdek, o'qituvchining ijodiy yondashuvi hamda o'quv maqsadlaridan kelib chiqib, assesmentga qo'shimcha topshiriqlarni kiritish mumkin.

Namuna. Har bir katakdagi to'g'ri javob 5 ball yoki 1-5 balgacha baholanishi mumkin.



1. *Тизим* тушунчасига таърифинг.

А. *Тизим бир бутунликни ташкил этувчи элементларнинг ўзаро алоқадорликдаги йиғиндисидир.*

Б. Тизим бир бутунликни ташкил этувчи бадиий компонентларнинг арифметик йиғиндисидир.

В. Тизим бир бири билан боғланган тушунчалар ҳамоҳанглигидир.

Г. Тизим бир бутунликни ташкил этувчи бири бирига ўхшамаган ҳолисалар тўпламидир.



2. Тизимли таҳлил деганда нимани тушунасиз?

А. *Ўзаро алоқадорликдаги тушунчалар асосида бирор объектни муайян мақсад асосида таҳлил қилиши.*

Б. Бирор асар ёки предметни кетма-кет таҳлил қилиши



4. Социал тизим деганда нимани тушунасиз?

А. *Мураккаб тарзда қурилган, яхлит ҳолда тартибланган, ўзаро алоқадорлик ва тараққиёт қонунларига асосланган ва ўз табиатиغا кўра ижтимоийлик касб этган тизим.*

Б. Мураккаб тарзда қурилган, ўзининг ички қонуниятлари асосида тараққий этадиган ва иқтисодий асосга эга бўлган тизим.

В. Гуманитар фанлар асосида ривожланадиган тизим.

3. Тизимли таҳлилга яқин келган, ҳатто синоним тарзида ишлатиладиган тушунчани аниқланг.

А. Тизим методологияси.

Б. *Тизимли ёндашув.*

В. Тизимли кетма-кетлик.

Г. Тизимлилик.

“Tushunchalar tahlili” metodi

Metodning maqsadi: mazkur metod talabalar yoki qatnashchilarni mavzu buyicha tayanch tushunchalarni o'zlashtirish darajasini aniqlash, o'z bilimlarini mustaqil ravishda tekshirish, baholash, shuningdek, yangi mavzu buyicha dastlabki bilimlar darajasini tashhis qilish maqsadida qo'llaniladi. Metodni amalga oshirish tartibi:

- ishtirokchilar mashg'ulot qoidalari bilan tanishtiriladi;
- o'quvchilarga mavzuga yoki bobga tegishli bo'lgan so'zlar, tushunchalar nomi tushirilgan tarqatmalar beriladi (individual yoki guruhli tartibda);

- o‘quvchilar mazkur tushunchalar qanday ma’no anglatishi, qachon, qanday holatlarda qo‘llanilishi haqida yozma ma’lumot beradilar;
- belgilangan vaqt yakuniga etgach o‘qituvchi berilgan tushunchalarning tugri va tuliq izohini uqib eshittiradi yoki slayd orqali namoyish etadi;
- har bir ishtirokchi berilgan tugri javoblar bilan uzining shaxsiy munosabatini taqqoslaydi, farqlarini aniqlaydi va o‘z bilim darajasini tekshirib, baholaydi.

Namuna: “Moduldagi tayanch tushunchalar tahlili”

Tushunchalar	Sizningcha bu tushuncha qanday ma’noni anglatadi?	Qo‘shimcha ma’lumot
Tizim	Tizim bir butunlikni tashkil etuvchi elementlarning o‘zaro aloqadorlikdagi yig‘indisidir.	
Tizimli tahlil	O‘zaro aloqadorlikdagi tushunchalar asosida biror ob’ektni muayyan maqsad asosida tahlil qilish.	
Sotsial tizim	Murakkab tarzda qurilgan, yaxlit holda tartiblangan, o‘zaro aloqadorlik va taraqqiyot qonunlariga asoslangan va o‘z tabiatiga ko‘ra ijtimoiylik kasb etgan tizim.	

Izoh: Ikkinchi ustunchaga qatnashchilar tomonidan fikr bildiriladi. Mazkur tushunchalar haqida qo‘shimcha ma’lumot glossariyda keltirilgan.

Venn diagrammasi metodi


Metodning maqsadi: Bu metod grafik tasvir orqali o‘qitishni tashkil etish shakli bo‘lib, u ikkita o‘zaro kesishgan aylana tasviri orqali ifodalanadi. Mazkur metod turli tushunchalar, asoslar, tasavurlarning analiz va sintezini ikki aspekt orqali ko‘rib chiqish, ularning umumiy va farqlovchi jihatlarini aniqlash, taqqoslash imkonini beradi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

- ishtirokchilar ikki kishidan iborat juftliklarga birlashtiriladi va ularga ko‘rib chiqilayotgan tushuncha yoki asosning o‘ziga xos, farqli jihatlarini (yoki aksi) doiralar ichiga yozib chiqish taklif etiladi;
- navbatdagi bosqichda ishtirokchilar to‘rt kishidan iborat kichik guruhlariga birlashtiriladi va har bir juftlik o‘z tahlili bilan guruh a‘zolarini tanishtiradilar;

- juftliklarning tahlili eshitilgach, ular birgalashib, ko‘rib chiqilayotgan muammo yohud tushunchalarning umumiy jihatlarini (yoki farqli) izlab topadilar, umumlashtiradilar va doirachalarning kesishgan qismiga yozadilar.

Namuna: Tizimli tahlil joriy qilinadiga filologiya sohalari



“Insert usuli”

Insert – samarali o‘qish va fikrlash uchun belgilashning inter faol tizimi hisoblanib, mustaqil o‘qib-o‘rganishda yordam beradi. Bunda ma’ruza mavzulari, kitob va boshqa materiallar oldindan talabaga vazifa qilib beriladi. Uni o‘qib chiqib “V”; “Q”; “?” belgilari orqali o‘z fikrini ifodalaydi.

Matnni belgilash tizimi

(V) – men bilgan narsani tasdiqlaydi.

(Q) Q yangi ma’lumot

(Q) – men bilgan narsaga zid

(?) – meni o‘ylantiradi. Bu borada menga qo‘shimcha ma’lumot zarur.

Insert jadvali

Tushunchalar	V	Q	-	?
Tarjima nazariyasiga oid asarlar	Mustaqillik davri tarjima asarlari			

O'zbek adabiyotidagi tarjima asarlari	«Qirq qiz», «Masposhsho»			
Qoraqalpoq adabiyotidagi tarjima asarlari	“Xorazm”, “Navro'z”, “Ulug'bek xazinasi”			
Tarjimalarning o'zbek-qoraqalpoq adabiy aloqalari rivojidadagi o'rni	“Hazrati inson”, “Ko'k jiyak”			

“Venn diagrammasi” Ushbu grafik organayzer tinglovchilarda mavzuga nisbatan tahliliy yondashuv, ayrim qismlar negizida mavzuning umumiy mohiyatini o'zlashtirish (sintezlash) ko'nikmalarini hosil qilishga yo'naltiriladi. U kichik guruhlarni shakllantirish asosida aniq sxema bo'yicha amalga oshiriladi. “Venn diagrammasi” grafik organayzeri adabiy ta'limda adabiy asarlar, tarjima asalarini tahlil qilish mumkin. Masalan; uchta doira chizib, o'zbek adabiyotidagi tarjima asari, qoraqalpoq adabiyotidagi tarjima asarlarining o'xshash va farqli tomonlarini tahlil qilish mumkin.

Venn diagrammasi talabalar tomonidan o'zlashtirilgan o'zaro yaqin nazariy bilim, ma'lumot yoki dalillarni qiyosiy tahlil etishga yordam beradi. Undan muayyan bo'lim yoki boblar bo'yicha yakuniy darslarni tashkil etishda foydalanish yanada samaralidir.

Klaster usulida tarjima asarlari.

“Klaster” – (g'uncha, to'plam, bog'lam) metodi – Fikrlarning tarmoqlanishi - puxta o'ylangan pedagogik strategiya bo'lib, undan talabalar bilan yakka tartibda yoki guruh asosida tashkil etiladigan mashg'ulotlar jarayonida foydalanish mumkin. Metod guruh asosida tashkil etilayotgan mashg'ulotlarda o'quvchilar tomonidan bildirilayotgan g'oyalarning majmuni tarzida namoyon bo'ladi. Bu esa ilgari surilgan g'oyalarni umumlashtirish va ular o'rtasidagi aloqalarni topish imkoniyatini yaratadi, talabalarning biron-bir mavzuni chuqur

o'rganishlariga yordam berib, ularni mavzuga taaluqli tushuncha yoki aniq fikrlarni erkin va ochiq uzviy bog'langan ketma-ketlikda o'rgatadi. Darsda imkon boricha fikrlarning va o'zaro bog'liqlikning ketma-ketligini ko'paytirishga harakat qilinishi lozim.

“Blits-o'yin” metodi **Metodning maqsadi:** tinglovchilarda tezlik, axborotlar tizmini tahlil qilish, rejalashtirish, prognozlash ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. Mazkur metodni baholash va mustahkamlash maksadida qo'llash samarali natijalarni beradi.

Metodni amalga oshirish bosqichlari:

1. Dastlab ishtirokchilarga belgilangan mavzu yuzasidan tayyorlangan topshiriq, ya'ni tarqatma materiallarni alohida-alohida beriladi va ulardan materialni sinchiklab o'rganish talab etiladi. SHundan so'ng, ishtirokchilarga to'g'ri javoblar tarqatmadagi «yakka baho» kolonkasiga belgilash kerakligi tushuntiriladi. Bu bosqichda vazifa yakka tartibda bajariladi.

2. Navbatdagi bosqichda trener-o'qituvchi ishtirokchilarga uch kishidan iborat kichik guruhlariga birlashtiradi va guruh a'zolarini o'z fikrlari bilan guruhdoshlarini tanishtirib, bahslashib, bir-biriga ta'sir o'tkazib, o'z fikrlariga ishontirish, kelishgan holda bir to'xtamga kelib, javoblarini «guruh bahosi» bo'limiga raqamlar bilan belgilab chiqishni topshiradi. Bu vazifa uchun 15 daqiqa vaqt beriladi.

3. Barcha kichik guruhlar o'z ishlarini tugatgach, to'g'ri harakatlar ketma-ketligi trener-o'qituvchi tomonidan o'qib eshittiriladi, va o'quvchilardan bu javoblarni «to'g'ri javob» bo'limiga yozish so'raladi.

4. «To'g'ri javob» bo'limida berilgan raqamlardan «yakka baho» bo'limida berilgan raqamlar taqqoslanib, farq bulsa «0», mos kelsa «1» ball quyish so'raladi. SHundan so'ng «yakka xato» bo'limidagi farqlar yuqoridan pastga qarab qo'shib chiqilib, umumiy yig'indi hisoblanadi.

5. Xuddi shu tartibda «to'g'ri javob» va «guruh bahosi» o'rtasidagi farq chiqariladi va ballar «guruh xatosi» bo'limiga yozib, yuqoridan pastga qarab qo'shiladi va umumiy yig'indi keltirib chiqariladi.

6. Trener-o'qituvchi yakka va guruh xatolarini to'plangan umumiy yig'indi bo'yicha alohida-alohida sharhlab beradi.

7. Ishtirokchilarga olgan baholariga qarab, ularning mavzu bo'yicha o'zlashtirish darajalari aniqlanadi.

III. NAZARIY MASHG'ULOT UCHUN MATERIALLAR

1-mavzu: Kommunikativ tilshunoslik tilshunoslikning zamonaviy yunalishi sifatida.

Reja:

1. Kommunikativ tilshunoslik va uning tarkibiy qismlari
2. Matn tilshunosligi.
3. Sociolingvistika.
4. Psixolingvistika.
5. Lingvistik pragmatika.

Tayanch so'z va iboralar: tilshunoslik, kommunikativ, tilning kichik va yirik birliklari, matn – tilning eng yirik birligi, matn mazmuni, matn ma'nosi, sociolingvistika, psixolingvistika, lingvistik pragmatika;

XX asr tilshunosligi tilning bevosita harakatdagi birliklarini, undagi o'zgarishlarni o'rganish bilan shug'ullana boshladi. Bunday tadqiqotlar tilshunoslikda kommunikativ-pragmatik aspektda olib boriladi. Bu aspekt tilning rivojlanishini, taraqqiyotini, kishilar hayoti, ularning nutqiy faoliyatlari bilan bog'liq holda o'rganishni etakchi maqsad qilib oladi. Bu esa tilshunoslikda lingvistik-pragmatika matn (kontekst) tilshunosligi singari yangi sohalarning shakllanishi va taraqqiyotiga sabab bo'ldi. Hozirgi zamon tilshunosligida katta mavqega ega bo'lgan kommunikativ tilshunoslik o'z ichiga quyidagi sohalarni oladi:

Matn tilshunosligi

Sociolingvistika

Psixolingvistika

Lingvistik pragmatika

1. Matn tilshunosligi. XX asr boshlariga kelib tilshunos olimlar tilda tovush, so'z, so'z birikmasi va gapdan ham yirik birliklar borligini aniqladilar. Bunday yirik til birliklari qatoriga sintaktik butunlik, abzac (xatboshi), diskurs va matn (kontekst) kiradi. Bunday yirik til birliklariga hozirgi tilshunoslikda turlicha ta'rif berilmoqda.

Bunday turlicha ta`riflar zahirida bir bosh mavzu asosida bog`langan gap yoki gaplar yig`indisi degan ma`no yotadi.

Matn tilning eng katta birligi sanaladi. Matnning birligi sifatida tadqiq etish rus tilshunosligida 30-yillardayoq boshlangan edi. Bu o`rinda A.M.Peshkovskiyning “Russkiy sintaksis v nauchnom obshenii” (1934), V.V.Vinogradovning “O xudojestvennoy proze” (1930), L.A. Bulaxovskiyning “Kurs russkogo literaturnogo yazika” (1952) kabi asarlarini eslash maqsadga muvofiqdir. Chunki xuddi ana shu tadqiqotlar uning muallifi o`ziga xos lisoniy xususiyatlari singari muammolarni o`rganishni boshlab berdi.

Hozirgi tilshunoslikda matn atamasiga turlicha ta`riflar berilmoqda. Masalan, tilshunos olim P.Gironing fikricha, matn o`zaro bog`langan birliklar butunligi bo`lib, bu butunlikni tashkil etuvchi belgilar ishoralar uslubiy taassurotni ifodalash maqsadida bir-biri bilan munosabatga kirishib yagona sistemani tashkil etadi.

Matnga aniq, to`g`ri ta`rif berish uchun uning xususiyatlarini belgilash lozim. Tilshunos S.Todorovning aniqlashiga ko`ra har qanday matn uch xususiyatga ega: a) jarayon, b) sintaksis xususiyat, v) semantik xususiyat. Matn aniq gaplardan tashkil topadi, bu esa matnning jarayon ekanini isbotlaydi. Matnning sintaktik xususiyati deyilganda matnning tashkil qiluvchi qismlar orasidagi o`zaro bog`lanish tushuniladi. Matnning semantikasi esa uning mazmunini o`zida ifoda etadi. Demak, matn ma`lum sistema asosida tuzilgan, o`z mazmuniga (semantikasiga) ega bo`lgan, tugallangan nutqiy faoliyat mahsulidir.

Matn tilshunosligida matn mazmuni va matn ma`nosi atamalari o`zaro farqlanadi. Ma`lum bir matndan o`rin olgan ma`lumot yoki axborot matnning mazmunidir. Matnning ma`nosi esa matn birliklari (gap, sintaktik butunlik, abzac) ga xos axborotdir. Matnning mazmuni unda ifodalanayotgan axborotning uzil-kesil yakunlanganligi bilan bog`liqdir. Matn ma`nosi esa tugal fikr anglatganda ham o`sha fikrning yana davom etishini taqozo etadi. Bundan ko`rinadiki, gap va matn o`rtasidagi asosiy farq yakunlanganlikning mutlaqligida tugallanganlikning esa nisbiyligidadir.

O`z oldiga qo`ygan amaliy maqsadiga ko`ra matn bir necha turlarga bo`linadi: yozma matnlar, og`zaki matnlar. Bu matn turlari o`z navbatida yana bir necha kichik guruhlarga, turlarga ajraladi. Masalan, og`zaki matnlar quyidagi turlarga bo`linadi: a) dialogik matnlar (suhbatlar), fol`klor (xalq og`zaki ijodi) matnlari, v) ovozarlar (mishmishlar). Matnlarning har bir turi o`ziga xos xususiyati bilan, tarkibi va mazmuni bilan boshqa tur matnlardan ajralib turadi. Masalan, ertak, topishmoq, maqol, terma singari matnlar fol`klor namunalari bo`lsa-da, bir-biridan farqlovchi xususiyatlarga ega.

Yozma matnlar tarkibiga kiruvchi monografiya, ilmiy maqola, ilmiy-ommabop maqola, taqriz, muammoviy maqola, risola singarilar turli farqlanuvchi belgilari bilan bir-biridan ajralib turadi. Masalan, ilmiy maqola muayyan masala jihatida avval ma`lum bo`lgan fikrlar muhokamasi bilan keyin muallifning shu masalaga oid yangi ilmiy qarashi bayon qilinadi hamda bu qarashlarning amaliy qo`llanishiga oid tavsiyalar beriladi, shu bilan ilmiy maqola matni yakunlanadi.

2. Sotsiolingvistika, (lot *societas* — jamiyat va lingvistika) — tilshunoslik, sosiologiya (jamiyatshunoslik), ijtimoiy psixologiya va etn. fanlari tutashmasida rivojlanuvchi va tilning ijtimoiy tabiati, uning ijtimoiy vazifalari, ijtimoiy omillarning tilga ta'sir ko'rsatish mexanizmi hamda tilning jamiyat hayotida tutgan o'rni bilan bog'liq ko'plab muammolar majmuini o'rganuvchi ilmiynazariy soha. Ushbu muammolarning ayrimlari (mas, «til va jamiyat») umumiy tilshunoslik doirasida ham o'rganiladi. Sotsiolingvistikaning fanlararo maqomi u foydalanadigan tushunchalar majmuida namoyon bo'ladi. Chunonchi, sotsiolingvistik tahlilning asosiy tushunchasi deb karaladigan til jamoasi ham ijtimoiy, ham lisoniy belgilar asosida aniklanadi.

Sotsiolingvistikaning eng muhim tushunchalaridan biri lisoniy vaziyat tushunchasi bo'lib, u muayyan etnik birliklar yoki ma'muriy-hududiy birlashmalarda muomala aloqa izchilligini ta'minlaydigan tilning (tillar, mintaqaviy umumiy tillar, hududiy va ijtimoiy lahjalarning) yashash shakllari majmui sifatida ta'riflanadi. Lisoniy vaziyatning ekzogloss (turli tillar majmulari) va endogloss (muayyan bir tildagi kichik tizimlar majmualari) guruhlari farqlanadi.

Zamonaviy sotsiolingvistikada e'tibor qaratish zarur bo'lgan eng muhim muammolarga quyidagilarni kiritish mumkin: til va millatning o'zaro ta'sirlashuvi; til va madaniyatning aloqasi va o'zaro ta'sirlashuvi; bilingvizm (ikki tillilik) va diglossiya (bir tilning birbiriga ijtimoiy qarshi qo'yilgan turli xil kichik tizimlarining o'zaro ta'siri)ning ijtimoiy jihatlari muammosi; til siyosati muammosi (davlat, ijtimoiy guruhlar tomonidan tillarning yoki til tizimchalarining funksional taqsimlanishini o'zgartirish yoki saqlab qolish maqsadida, yangi lisoniy me'yorlarni joriy qilish yoki eskilarini saqlab qolish maqsadida amalga oshiradigan chora tadbirlar majmui) va b.

3. Psixolingvistika — nutqning hosil bo'lishi, shuningdek, nutqni idrok etish va shakllantirish jarayonlarini ularning til tizimi bilan o'zaro bog'lanishi holatida o'rganuvchi fan; psixologiya va lingvistikannng sintezidan paydo bo'lgan. Psixolingvistika inson nutqiy faoliyati modelini va psixofiziologik nutqiy shakllanishini ishlab chi-qib, ularni psixologik eksperimentlar yo'li b-n tekshiradi. Tadqiqot manbai bo'yicha tilshunoslikka yaqin bo'lgan Psixolingvistika o'z tekshirish usullari bo'yicha psixologiyaga yaqin turadi. Unda o'zaro bog'lanishli eksperiment, "semantik differensial" kabi va b. eksperimental usullar qo'llanadi. Psixolingvistika bir qator amaliy masalalar [ona tili, ayniqsa, xorijiy tilni o'rgatish; maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqiy tarbiyasi va logopediya masalalari; miyadagi nutqiy markazlar kasalliklari klinikasi; nutqiy ta'sir ko'rsatish muammolari (xususan ommaviy axborot vositalari faoliyatida va targ'ibot ishlarida); sud psixologiyasi va kriminalistika (mas, kishilarni ularning nutq xususiyatiga qarab tanib olish, aniqlash); mashina tarjimasini hamda nutqiy axborotni EHMga kiri-tish muammolari va b.]ni nazariy jihatdan tushuntirish zarurati tufayli o'tgan asrning 60-yillarida paydo bo'lgan. "Psixolingvistika" termini o'tgan asrning 60-yillari o'rtalarida amerikalik olimlar tomonidan amaliyotga kiritilgan. O'zbekistonda ushbu sohada bir kancha ishlar bajarilgan bo'lsada, haqiqiy ma'nodagi psixolingvistik tadqiqotlar endigina boshlanmoqda.

Mustaqil fan sifatida, psixolingvistika 20-asrning o'rtalarida shakllana boshladi va u nihoyat Miller va Maknillning "Psixolingvistika" asarini nashr etgandan keyin birlashdi.

Uchta muhim omil psixolingvistika va an'anaviy tilshunoslikni farqlashga imkon beradi.

1. Psixolingvistika tilni emas, balki nutqni o'rganish bilan shug'ullanadi mutlaqo yangi omil - odamni kiritdi.

2. Spiker (tinglovchi) omili bilan birgalikda vaziyatning omili kiritiladi: nutq har doim ma'lum bir vaziyatda amalga oshiriladi. Til tizimi vaziyatga bog'liq bo'lmagan, barqaror bo'lgan narsa sifatida qabul qilinadi. Nutq faoliyati ushbu vaziyatga juda bog'liq: suhbatdoshning yoshi, uning ma'lumot darajasi va boshqalar. So'nggi paytlarda gender omillari faol ravishda o'rganilmoqda. Masalan, matnning ba'zi bir sof lingvistik parametrlariga ko'ra, muallif erkakmi yoki ayolmi-yo'qligini yuqori darajada ishonch bilan aytish mumkin [Vasilevich, Mamaev, 2014].

3. Yana bir muhim omil - bu tajriba. Nutqni idrok etish va avlodni shakllantirish jarayonini o'rganib, psixolingvistika nutq faoliyatining turli xil modellarini taklif etadi, ular ona tilida so'zlashuvchilar bilan tajribada majburiy ravishda sinovdan o'tkaziladi.

Nutqni yaratishga turtki har doim muayyan kommunikativ vazifalarni hal qilish uchun odamning nutq aloqasiga kirishga bo'lgan ehtiyojdir. Kommunikativ niyatdan so'ng, ma'ruzachining umumiy maqsadi aniqlanadi: u tinglovchilarga yoki o'quvchilarga aniq nima demoqchi, unga nimani ishontirish kerakligini va hokazo. Dastlab ongda fikr so'zda mavjud emas, bu "ichki nutq kodeksi" ko'rinishidagi rasmlar, tasvirlar, o'ziga xos sxemalar ko'rinishidagi "noaniq istak". Bundan tashqari, yuzaga kelgan bosh reja (ichki nutqda) ochila boshlaydi; Bayonotning muhim bosqichlari ko'rsatilgan. Rejalashtirayotganda hikoya qiluvchi dastlab hikoyaning asosiy tezisini, uning asosini ko'rsatishi kerak. Keyin u ushbu markazga yondashuvlar va kelgusida rivojlanish uchun maslahatlar berilishi mumkin bo'lgan va ehtimol muammoni hal qilishni va'da qilgan kirish izlaydi. Shundan so'ng,

xulosalar va tugashni ko'rib chiqishingiz kerak. Ta'riflangan sxema rasmiy, ammo u bayonotni ichki tayyorlash jarayonini, aksini namoyon etadi.

Ta'riflangan fikrlar chet tilini o'qitish metodikasi bilan bevosita bog'liq edi. Tahlil shuni ko'rsatdiki o'qitish Amalda bayonnomalarni (og'zaki yoki yozma) yaratish odatda bir qator vaziyatlarni hisobga olmaydi. Shunday qilib, o'qituvchi kamdan-kam hollarda bolaning muloqotga kirishga bo'lgan ehtiyojiga e'tibor beradi. Talaba bayonot yaratadi, chunki bu o'qituvchining vazifasi, ammo u kommunikativ motivga ega emas. Ko'pincha o'qituvchi o'quvchiga ma'lum bir aloqa holatini bermaydi (kimni, nima uchun, qanday sharoitda nutq so'zlayotganini biladi) - odatda u inshoni yozadi yoki "shunchaki", o'tgan materialga savollarga javob beradi. Haqiqiy nutq amaliyotida "oddiy" iboralar yaratilmaydi.

4. Lingvistik pragmatika

Badiiy matnda aks etgan nutqiy aktlar va so'zlashuv uslubi bilan bogliq kundalik nutqiy muloqot shakllariga xos xilma-xil mazmuniy ifodalarning pragmatik talqini pragmatik lingvistikaning tahlil usullariga egaligini ko'rsatadi. Shunga ko'ra, lingvistik ilmiy paradigmani yangilagan pragmatika tilshunoslikning alohida tarmog'i sifatida ajratiladi. Pragmatik lingvistikaning asosiy birliklarini til va nutq ziddiyatida talqin etish uning tilshunoslik fanidagi qimmatini oshiradi. Pragmatik lingvistika o'z-o'zidan paydo bo'lmagan. Tadqiqotchilarning semantikaga qiziqishi natijasida lingvistik nazariyalar rivojiga ta'sir etgan bir qator omillar pragmatic lingvistikani mustaqil sohaga aylantirdi. Chunonchi, lingvistikaning gap mazmuni – propozitsiyaga alohida diqqat qiluvchi mantiq bilan munosabatining yangi pog'onaga ko'tarilishi, til va nutqning mazmun tomoniga umumiy burilishi, nutq faoliyatining pragmatik komponentiga e'tiborning kuchayishi, gapga maxsus ma'nosiga ega til belgisi sifatida qarashning paydo bo'lishi va sintaktik transformatsiya nazariyasining vujudga kelishi singari omillar turtki bo'ldi.

Ma'noli birliklar onomasiologik va semasiologik nuqtayi nazardan o'rganilgan. Onomasiologik yo'nalishda obyektiv olamdagi makro va mikro olamlarning tilda qanday ifoda etilishi va har qaysi tilning o'ziga xos ifoda

imkoniyatlari o'rganiladi. Shuni hisobga olib, tilni maydon sifatida o'rganishga e'tibor qilinadi. O'zbek tili pragmatikasi obyektiv olamdagi voqeliklarni aks ettiruvchi elementlardan tashkil topib, funksional maydon sifatida ma'lum sistemaga birlashadi. Demak, til elementlari xususiy munosabatni ifodalash vazifasiga ko'ra pragmatik maydonni hosil qiladi. O'zbek tilshunosligida pragmatik lingvistika bo'yicha ba'zi tadqiqotlar amalga oshirilgan. Biroq muloqotda shaxs omili bilan bog'liq masalalar, jumladan, kommunikantlarning madaniy kompetensiyasi, nutqiy akt ishtirokchilarining o'zaro munosabati va axloqiy masalalarga ta'siri hamda muloqotni boshqarishi kabilar lingvistik pragmatikada yechimini kutayotgan muammolardir. Shuningdek, pragmalingvistik birliklar, tilning pragmatik modellari xususida o'zbek pragmatik tilshunosligida fikr bildirilmagan. Pragmatik lingvistika tilshunoslikning alohida tarmog'i sifatida endigina o'rganilayotganligi bois pragmalingvistik kategoriyalar, uning birliklari to'g'risida nazariy umumlashmalar yetarli darajada shakllanmagan. Chunonchi, L.A.Kiselyova har qanday tadqiqot obyekti ma'lum lingvistik birliklar sistemasidan iboratligi, ular maxsus til modellarini hosil qilishi, pragmalingvistik birliklar va kategoriyalar ham mavjudligini ta'kidlaydi. Uning qarashlari L.Bertalanfi, A.A.Leontyev kabi olimlarning "O'zida aniq yo'nalishga ega bo'lgan barcha ilmiy tuzilmalar modellar sanaladi. Tahlil natijasi sifatida biz nimaga ega bo'lamiz, o'zimizning lingvistik faoliyatimizda nimaga erishamiz? Bu til modellaridir" degan g'oyasiga hamohang.

Shu ma'noda, pragmatik lingvistika ham o'z birliklariga ega bo'lib, til modelini hosil qiladi. Buning uchun tilning ta'sir etish va boshqarish vazifalari orqali so'zlovchi maqsadi asosida birlashuvchi, ya'ni pragmatik xususiyatlarini aks ettiruvchi maxsus pragmalingvistik birliklar sistemasini ajratish lozim.

Nutqiy ta'sir etish va nutqiy kommunikatsiya nazariyasiga ko'ra, sintaktik birliklardagi axborot tarkibi til birligi sifatida ikkiga ajratiladi:

- 1) informema;
- 2) pragemema.

Bular pragmalingvistik birliklar sanaladi. Pragmalingvistik birliklar til birliklari bilan funksional til maydonida to'g'ridan to'g'ri zidlanadi. Matn yoki nutq vositasida bayon qilingan har qanday axborot so'zlovchining ma'lum ichki maqsadini ifoda etish uchun xizmat qiladi. Shu ma'noda matn tarkibidagi axborot ko'rinishi ikki guruhga ajratiladi. Informema matn yoki nutqda faqat so'zlovchi nazarda tutgan neytral vazifaga ega bo'lgan oddiy axborot ko'rinishidir yoki so'zlovchi xususiy munosabatidan xoli bo'lgan propozitiv mazmundir.

Informema – tilning turli sathiga oid birliklar bo'lib, ular faqat ratsional, intellektual axborot tashuvchi belgilarga ega bo'ladi. Informemalar o'zida faqat ratsional, intellektual axborot ko'rinishlarini ifodalashi bilan pragmemalardan farq qiladi. Informemalar bajarayotgan vazifasiga ko'ra, intellektual-informativ til maydonining qurilish unsuri sifatida namoyon bo'ladi.

Pragmemalar esa inson axloqiga ta'sir etish vazifasiga ko'ra informemalar bilan ziddiyatga kirishadi. Agar informema faqat intellektual-informativ belgisi bilan namoyon bo'lsa, pragmemalar so'zlashuvchilar o'rtasidagi munosabatda inson axloqini aks ettirish xususiyatiga ko'ra ajralib turadi va shu belgisi asosida ziddiyat hosil qiladi. Pragmemalar ham tilning turli sathdagi birliklari bo'lib, ular maxsus pragmatik vazifaga xoslangan bo'ladi. Bular inson xulqini boshqarish uchun xizmat qiladi. Bularga nutq subyekti ichki ruhiyati bilan aloqador emotsional hodisalarni ifoda etuvchi til birliklari kiradi. Pragmemalar doimiy pragmatik axborot tashuvchilardir. Pragmemalar o'z semantikasi yoki bajarayotgan vazifasiga ko'ra ikki guruhga ajratiladi. Ba'zi pragmemalarda faqat pragmatik vazifasiga ko'ra dominantlik xususiyati mavjud bo'ladi. Bunday pragmemalar faqat adresat ruhiyatiga ta'sir etish uchun mo'ljallangan bo'lib, axloqiy holatni boshqarishga xizmat qiladi.

Nazorat savollari:

1. Kommunikativ tilshunoslik nima? Uning tarkibiy qismlari haqida umumiy tushuncha bering;
2. Nutq tilshunosligi nima? Uning predmeti va vasifasi nimadan iborat?
3. Sociolingvistika va uning predmeti nimani o'rganadi?

4. Psixolingvistika va uning turlari haqida ma'lumot bering.
5. Lingvistik pragmatika va uning tarkibiy qismlari haqida ma'lumot bering.

IV. AMALIY MASHG'ULOT UCHUN MATERIALLAR

2- mavzu: Kommunikativ kompetentsiya tamoyillari.

Reja:

1. Kommunikative kompetensiyaning nazariy asoslari
2. Kommunikative kompetensiyaning asosiy tamoyillari
3. Kommunikativ kompetensiyaga ega bo'lishning o'ziga hos xususiyatlari va qonun-qoidalari

Til mahorati (kompetensiyasi). Tayanch tushunchalar: Structured linguistics, sound image (signifier), mental image (signified), linguistic competence, form, meaning, and use. Struktural lingvistika, ovozli tasvir, aqliy tasvir, lingvistik kompetentsiya, shakl, mazmun.

1. Kommunikativ kompetensiyaning nazariy asoslari

Kommunikativ kompetentsiya — murakkab kommunikativ ko'nikma va ko'nikmalarini egallik, yangi ijtimoiy tuzilmalar yetarli ko'nikmalarini shakllantirish, muloqot madaniy normalar va cheklovlar bilim, aloqa sohasida bojxona, urf-odatlar, etiket, odob-axloq, ta'lim, aloqa vositalari orientatsiya bilim, milliy, sinf mentalitetiga xos va, bu kasb doirasida ifodalangan.

Kommunikativ kompetentsiya — bu muloqot qobiliyatlari, bilim, ko'nikma va ko'nikmalar, biznes aloqalari sohasida hissiy va ijtimoiy tajribani o'z ichiga olgan shaxsning umumiy kommunikativ xususiyatidir.

Kommunikativ kompetentsiya tushunchasiga berilgan ta'riflar

№	Tadqiqotchilar	Tadqiqotchilar tomonidan berilgan ta'riflar
1.	Ye.I.Litnevskaya	kommunikativ kompetentsiya barcha nutq faoliyati turlarini egallash orqali og'zaki va yozma nutqqa asoslangan holda tilda ko'nikma va malakalardan foydalib, situatsiyali muloqotga kirisha olish jarayoni ekanligini ta'kidlaydi

2.	I.L.Bim	kommunikativ kompetensiya til o'rganishda nutq faoliyati turlaridan gapirish, tinglab tushunish, yozish va o'qishni o'z ichiga olad
3.	B.Daniyarov	«...kommunikativ kompetensiya – xorijiy til bo'yicha egallagan bilim, ko'nikma va malakalarni muloqot jarayonida qo'llay olish layoqati» deb hisoblaydi
4.	L.T.Ahmedova va Ye.A.Lagay	«...kommunikativ kompetensiya – til sohibi bilan chet tilda muloqot qilishni amalga oshirish uchun tayyor bo'lishlik hamda maktab o'quvchilarining tili o'rganilayotgan mamlakatning tili va madaniyatini yaxshi anglagan holda o'zining davlatini ham muloqot jarayonida tanishtira olish qobiliyatidir»

N.D.Galskova va N.I.Gezlarning ta'rificha, “...kommunikativ kompetensiya XX asrning 1970yillaridan boshlab insonning kognitiv va shaxslararo tayanch kommunikativ ko'nikmalar o'rtasidagi farqni aniqlashga bo'lgan harakatlar natijasida paydo bo'lgan. Keyinchalik ushbu tushuncha mazkur kompetensiyaning har xil modellarining vujudga kelishida namoyon bo'ldi. Shunday modellardan biri V.Ekk modeli bo'lib, uning tarkibiy komponentlariga lingvistik, sotsiolingvistik, diskursiv, sotsiomadaniy, strategik va ijtimoiy subkompetensiyalarni kiritish mumkin”

Tadqiqotchilar tomonidan kommunikativ kompetensiyani tashkil etuvchi komponentlar ham turlicha talqin etilgan (1.7-jadvalga qarang):

Kommunikativ kompetensiyaning komponentlari talqiniga doir qarashlar

<i>№</i>	<i>Tadqiqotchilar</i>	<i>Kommunikativ kompetensiya komponentlari talqini</i>
1.	E.I.Passov	kommunikativ kompetensiya komponentlarini pertseptiv va produktiv turlarga ajratgan

2.	N.D.Galskova	kommunikativ kompetensiya lingvistik, pragmatik va sotsiolingvistik komponentlardan tashkil topadi
3.	N.I.Gež	kommunikativ kompetensiyaning lingvistik, meta kommunikativ, verbal kommunikativ, verbal-kognitiv kompetensiya turlariga ajratgan
4.	I.L.Bim	kommunikativ kompetensiyaning lingvistik, tematik, sotsiomadaniy, ijtimoiy va o'quv kompetensiyalar strukturalarini tavsiya etadi
5.	V.Baxmana va Ye.S.Tkachuk	kommunikativ kompetensiya pragmatik, diskursiv, strategik, sotsiolingvistik, til, nutq, fikr kabi komponentlarga ajratilgan
6.	J.Layonz	kommunikativ kompetensiyani stilistik, sotsiolingvistik, pragmatik va kommunikativ turlarga bo'ladi
7.	E.Solovova	kommunikativ kompetensiyaning tarkibiy qismlariga ijtimoiy, lingvistik, sotsiolingvistik, sotsiomadaniy, strategik, diskursiv kompetensiyalar kiradi
8.	V.V.Safanova	kommunikativ kompetensiyani til, nutq, umummadaniy, hamda sotsiomadaniy o'z ichiga olgan sotsiolingvistik va lingvomamlakatshunoslik kompetensiya turlariga bo'ladi
9.	A.Shukin	lingvistik, sotsiolingvistik, diskursiv, strategik, ijtimoiy, sotsiomadaniy kabi turlarga ajratadi
10.	M.Kanale, M.Sveyn	kommunikativ kompetensiya grammatik, strategik, sotsiolingvistik kompetensiyalardan iborat
11.	J.Jalolov, G.Mahkamova va Sh.Ashurovlar	SEFR ning oltita darajasi bo'yicha xorijiy tilni o'qitishda kommunikativ kompetensiyaning, (domestic model) komponentlarini lingvistik kompetensiya (til va nutq birliklari va ularning

		ishlatish qoidalari), sotsiolingvistik kompetentsiya (sotsiomadaniy, disskursda tildan foydalanish), pragmatik kompetentsiya (ijtimoiy, diskurs, strategik va sotsiomadaniy) turlarga bo'ladilar
12.	B.Daniyarov	xorijiy tilga oid kompetentsiyalarni uchta asosiy guruhga: lingvistik, sotsiolingvistik va pragmatik kompetentsiyalarga bo'ladi
13.	L.T.Ahmedova va Ye.A.Lagay	kommunikativ kompetentsiyalarni lingvistik, sotsiolingvistik (sotsiomadaniy), pragmatik (diskursiv) komponentlarga ajratadilar
14.	A.T.Irisqulov	kommunikativ kompetentsiya lingvistik (grammatik), sotsiolingvistik, strategik kompetentsiyalardan tashkil topadi
15.	D.A.Kurbanbaev	lingvistik omilkorlik, leksik omilkorlik, grammatik omilkorlik, semantik omilkorlik, fonologik omilkorlik, orfografik omilkorlik, orfoepik omilkorlik, sotsiolingvistik omilkorlik, diskursiv omilkorlik, strategik omilkorlik, ijtimoiy omilkorlik, sotsiomadaniy omilkorlik, fan bo'yicha omilkorlik, kasbiy omilkorlik, ekzistentsial omilkorlik

Jadvaldan ko'rinadiki, D.A.Kurbanbaev «kommunikativ kompetentsiya» terminini «kommunikativ omilkorlik» deb ataydi. Fikrimizcha, omilkorlik atamasidan ko'ra kompetentsiya atamasini qo'llash maqsadga muvofiq. Chunki til ta'limida kompetentsiya layoqatdir. A.T.Irisqulov kommunikativ kompetentsiyani yuqoridagi komponentlarga ajratadi va o'z tarkibida quyidagilarni qamrab olishini ham ta'kidlaydi:

- 1) tilga oid materialni chuqur o'zlashtirganlik;
- 2) ijtimoiy-lingvistik yoki sotsiolingvistik omilkorlik;
- 3) maqsadga yo'naltirgan omilkorlik

M.Kanale, M.Sveynlarning fikricha, kommunikativ kompetensiya grammatik, strategik, sotsiolingvistik kompetensiyalardan iborat. Keyinchalik M.Kanaleo'z modeliga diskurs kompetensiyasini ham qo'shdi. Hozirgi kunda kommunikativ kompetensiyaning to'rtta asosiy komponentlari sifatida: lingvistik, sotsiolingvistik, diskurs va strategik kompetensiyalarga ajratmoqdalar. Bildirilgan fikrlar kommunikativ kompetensiyaga e'tibor va qarashlar ham juda xilma-xil bo'lganligini ko'rsatadi. Biz Ye.Solovova, V.Ekk, M.Kanale, M.Sveyn, J.Jalolovlarning fikrlariga qo'shilgan holda, kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishda lingvistik kompetensiya (Linguistic competence), sotsiolingvistik kompetensiya (Sociolinguistic competence), diskursiv kompetensiya (Discourse competence), strategik kompetensiya (Strategic competence), sotsiomadaniy kompetensiya (Sociocultural competence), pragmatik kompetensiya (Pragmatic competence) komponentlarini muhim deb hisoblaymiz. DTS talablari ham bunga uyg'un keladi.

Qayd etilgan kompetensiya turlarining kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishdagi o'rnini beqiyos bo'lib, barcha fanlar bo'yicha egallangan bilimlarni bayon etish va qo'llash muloqot yuritishni talab etadi. Hozirgi kunda ta'limning asosiy talabi turli fanlardan olingan bilimlarni o'z o'rnida amaliy qo'llay olishga o'rgatish bo'lib, bu esa, o'z-o'zidan integrativ yondashuvni talab qiladi. Kommunikativ kompetensiyani shakllantirishda avvalo lingvistik kompetensiya, ya'ni fonetik, leksik va grammatik bilimlarni bilish muhim ahamiyatni kasb etadi. Chunonchi, fonetika orqali tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish, urg'uni to'g'ri qo'yish va intonatsiyalar o'rganilsa, leksika orqali so'zlar, so'z birikmalari, idiomalar o'rganiladi. Grammatika orqali so'z birikmalari, turli xil gaplarning tuzilishi, zamonlarning moslashuvi o'rganiladi

2. Kommunikativ kompetensiyaning asosiy tamoyillari

CLT-ning asosiy maqsadi o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishdir, bu Brandl (2008) ga binoan "tegishli ijtimoiy xatti-harakatlarni talqin qilish va amalga oshirish qobiliyati va bu o'quvchining

maqsadli tilni ishlab chiqarishda faol ishtirokini talab qiladi". Bu shuningdek quyidagi qobiliyatlarni o'z ichiga oladi (6-bet):

- lingvistik kompetensiya (grammatika va so'z boyligini bilish)
- sotsiolingvistik kompetensiya (ijtimoiy vaziyatda tegishli narsani ayta olish qobiliyati)
- nutq vakolati (suhbatni boshlash, kirish, unga hissa qo'shish yoki tugatish qobiliyati)
- strategik kompetensiya (samarali muloqot qilish va aloqadagi muammolarni bartaraf etish qobiliyati)

Lingvistik kompetensiya - bu tilning grammatikasidan, sintaksisidan va lug'atidan qanday foydalanishni bilishdir. Til kompetensiyasi savol beradi: Men qanday so'zlardan foydalanaman? Ularni qanday qilib iboralar va jummalarga joylashtirishim mumkin?

Sotsiolingvistik kompetensiya - bu sozlamalari, mavzusi va muloqot qilayotgan odamlar o'rtasidagi munosabatlarni hisobga olgan holda tildan qanday qilib to'g'ri foydalanishni va unga javob berishni bilishdir. Sotsiolingvistik kompetensiya so'raydi: Qaysi so'zlar va iboralar ushbu sozlamaga va ushbu mavzuga mos keladi? Zarur bo'lganda o'ziga xos munosabatni (xushmuomalalik, hokimiyat, do'stona munosabat, hurmat) qanday ifoda etishim mumkin? Boshqa odam qanday mu

Diskurs kompetensiyasi - bu katta kontekstni qanday talqin qilishni va qismlarning izchil yaxlitligini tashkil qilishi uchun uzoqroq tillarni qanday qurishni bilishdir. Diskurs vakolati quyidagilarni so'raydi: so'zlar, iboralar va jumlar suhbatlar, ma'ruzalar, elektron pochta xabarlarini, gazeta maqolalarini yaratish uchun qanday birlashtiriladi?

Strategik kompetensiya - bu aloqa buzilishini qanday aniqlash va tuzatishni bilish, odamning til haqidagi bilimidagi bo'shliqlar ustida ishlash va tilni muayyan kontekstda ishlatish haqida ko'proq bilib olish. Strategik kompetensiya savol beradi: Qachon men noto'g'ri tushunganimni yoki kimdir meni noto'g'ri tushunganini qanday bilsam bo'ladi? Keyin nima deyman? Agar biror narsaning nomini yoki to'g'ri fe'l shaklini bilmasam, qanday qilib o'z fikrlarimni bildirishim mumkin?

Ijtimoiy lingvistik va nutq vakolatlarini boshqarish va oshirish uchun qanday strategiyalardan foydalanishim mumkin? nosabatda ekanligini qanday bilsam bo'ladi?

Tilni o'rganish ushbu to'rt yo'nalishda ham malakani rivojlantiradi, chunki tilni o'qitish Tillarni O'rganishga Butunjahon Tayyorlik Standartlari (ACTFL) ning beshta maqsad yo'nalishiga asoslanadi:

Muloqot: o'zaro aloqada bo'lish, ma'lumotni talqin qilish yoki taqdim etishdan qat'i nazar, talabalar so'zlarni tushunish va tanlash va ularni birlashtirish uchun o'zlarining lingvistik vakolatlaridan foydalanadilar. Ular o'zlarining nutq vakolatlaridan uzoqroq tillarni tarjima qilish va qurish uchun foydalanadilar. Ularning sotsiolingvistik kompetensiyasi ularga tilning kontekstga va ma'ruzachilarga mos keladigan usullarini tushunishga, strategik vakolatlari esa aloqa buzilishlarini tanib boshqarish imkoniyatini beradi.

Madaniyatlar: Talabalar muloqotda madaniy elementlarning o'rni to'g'risida xabardor bo'lishlari bilan sotsiolingvistik kompetensiyani rivojlantiradilar. Ular nutq kompetensiyasini rivojlantiradilar, chunki ular madaniy kutish va nutq tuzilishi me'yorlari to'g'risidagi bilimlarini oshirishadi va strategik kompetensiyani aloqa buzilishlarini boshqarish uchun madaniy jihatdan mos usullarni o'rganadilar. Talabalar ushbu qobiliyatlarni rivojlantirganda, madaniy istiqbollar va amaliyotlar to'g'risida tushunchaga ega bo'ladilar.

Aloqalar: Talabalar o'zlari o'rganayotgan tilda mavjud bo'lgan kontent sohasidagi bilimlarga kirish uchun lingvistik va nutqiy vakolatlarini qo'llaydilar. Bunday bilimlarga intilish jarayonida ular o'zlarining lingvistik va nutqiy vakolatlarini oshirish imkoniyatlariga duch kelishadi. Tilda ifodalangan o'ziga xos nuqtai nazarlarni tan olish bilan ularning sotsiolingvistik vakolatlari oshadi. Va nihoyat, talabalar o'zlarining strategik vakolatlaridan foydalanib, qiyin tarkib materiallarini tushunishda yordam berishadi.

Taqqoslashlar: o'rganilayotgan til yoki madaniyat bilan o'zaro taqqoslash talabalarni o'zaro lingvistik, sotsiolingvistik va diskurs farqlari to'g'risida faol

o'ylashga undaydi. Buning uchun ular o'zlarining lingvistik, sotsiolingvistik va diskurs vakolatlaridan foydalanadilar va xabardor bo'ladilar.

Hamjamiyatlar: Tilni maktab sharoitida va undan tashqarida foydalanish uchun talabalar vakolatning to'rtala sohasiga asoslanadi. Kommunikativ kompetensiya talabalarga shaxsiy zavq va boyitish uchun tillardan foydalanishga imkon beradi.

Tilni o'rganishning dastlabki bosqichlarida o'qituvchilar va talabalar kommunikativ samaradorlikning maqsadini yodda tutishni istashlari mumkin: o'quvchilar hozirgi bilimlarini maksimal darajada ishlatib, tushunishlari va o'zlarini tushuntira olishlari kerak. Ular xabardagi chalkashliklarni oldini olishga harakat qilishlari kerak (noto'g'ri talaffuz, grammatika yoki so'z boyligi tufayli); aloqa sheriklarini xafa qilishdan saqlanish (ijtimoiy jihatdan noo'rin uslub tufayli); va aloqa buzilishini aniqlash va boshqarish uchun strategiyalardan foydalanish.

3. Kommunikativ kompetensiyaga ega bo'lishning o'ziga hos hususiyatlari va qonun-qoidalari

Kommunikativ kompetensiyaga ega bo'lish faoliyat yo'nalishi uning tarkibiy qismlarini aniqlash imkoniyatini belgilaydi:

- motivatsion va qiymat komponenti;
- kognitiv komponent;
- hissiy komponent;
- xulq-atvor komponenti (4, 20).

Kommunikativ qobiliyat umumiy madaniyatni va uning professional faoliyatida o'ziga xos namoyonlarini sintez qiluvchi integral sifatdir. Muloqot qobiliyati quyidagilardan iborat:

- muloqot qilish kerak bo'lgan kommunikativ vaziyatning ijtimoiy psixologik prognozini berish;
- muloqot jarayonini ijtimoiy-psixologik jihatdan dasturlash,
- kommunikativ vaziyatning o'ziga xosligiga asoslangan;
- kommunikativ vaziyatda aloqa jarayonlarini ijtimoiy-psixologik boshqarishni amalga oshirish.

Kommunikativ kompetentsiyaning shartlaridan biri, muayyan qoidalar va talablarni bajarishdir. Ushbu qoidalarning eng muhimlari quyidagilar:

1. *Eng keng tarqalgan qoida* — bu o'z-o'zidan tushunilmagan yoki to'liq tushunilmagan bo'lsa, fikr bildirishni boshlashning iloji bo'lmagan qoidadir.
2. *Tushunish uchun doimiy tayyorgarlik qoidasi*. Ko'pincha semantik va shaxsiy to'siqlar mavjud bo'lib, ular ko'pincha xabarlarni to'liq va noto'g'ri tushunishga olib keladi.
3. *Aniqlik qoidasi*. Noma'lum, noaniq so'zlardan qochish kerak va begona yoki yuqori ixtisoslashgan atamalardan foydalanmaslik lozim.
4. *Og'zaki bo'lmagan signallarni nazorat qilish qoidasi*. Faqat nutqingizni va xabarning mazmunini nazorat qilish yetarli emas. Bundan tashqari, uning tashqi eskort — yuz ifodalari, imo-ishoralari, intonatsiyasi, pozitsiyasi bilan bog'liq bo'lgan qismida uning shaklini nazorat qilish kerak.
5. *O'z nohaqligi qoidasi*. Aloqa paytida har doim shaxsiy nuqtai nazar noto'g'ri bo'lishi mumkinligiga ruxsat berish kerak. Bu ko'pincha jiddiy xatolardan ogohlantiradi.
6. *Joy va vaqt qoidasi*. Har qanday xabarning samaradorligi o'z vaqtida amalga oshiriladigan eng munosib vaziyatni tanlashda keskin oshadi.
7. *Ochiqlik qoidasi*. Yangi ochilgan vaziyatlarning ta'siri ostida o'z nuqtai nazarini qayta ko'rib chiqishga tayyor bo'lishni, shuningdek, suhbatdoshning nuqtai nazarini qabul qilish va hisobga olish qobiliyatini anglatadi.
8. *Faol va konstruktiv tinglash qoidasi* samarali kommunikatsiyalarning asosiy shartlaridan biridir.
9. *Fikr-mulohaza qoidalari*. Bu qoida, oxir-oqibatda, kommunikativ jarayonning asosiy maqsadiga erishishni ta'minlaydi — o'zaro tushunish (7, 1).

Kommunikativ kompetentsiya asosini quyidagilar tashkil qiladi:

- muloqotni tashkil qilish — shaxslararo muloqot ko'nikmasi;
- muloqotni, kontakti saqlash, teskari aloqani o'rnatish;
- muloqot natijalarini analiz qilish (5, 82).

H. Mustafaeva o'z tadqiqotida ingliz tili grammatikasini ijtimoiy-gumanitar fakul'tetlar o'zbek guruhlari talabalari tomonidan o'zlashtirishning lingvodidaktik tamoyillari, metodik vositalari to'liq bir majmua sifatida tadqiq etgan (11, 8). T. Madraximov ingliz tili so'zlashuv nutqining strukturaviy, funktsional-semantik va pragmatik xususiyatlari kommunikativ tilshunoslik hamda qiyosiy tipologik nuqtai nazardan tahlilga oid muammolarni o'rgandi. So'zlashuv nutqining uslubiy varianti sifatida tasvirlash va tahlil qilish bilan cheklanib qolmasdan, uning sifat xarakteristikasini belgilab beruvchi omillar ham aniqlandi etnosotsiolingvistik, kognitiv-kommunikativ, paralingvistik, ruhiy fiziologik, modallik, individual omillar turli lisoniy birliklar misolida yoritib berildi (8, 8).

Nazorat savollari:

1. Kommunikativ kompetensiya nima va unga berilgan turli ta'riflarning o'xshash va farqli jihatlari qanday?
2. Tadqiqotchilar tomonidan kommunikativ kompetensiyani tashkil etuvchi qanday komponentlar talqin etilgan?
3. Kommunikativ kompetensiya qanday qobiliyatlarni o'z ichiga oladi?
4. Kommunikativ kompetensiyaga ega bo'lishning qanday o'ziga hos xususiyatlari va qoidalari ta'riflab o'tilgan?

3 - mavzu: CEFR va uning doirasida 4 kompetensiya: lingvistik, sotsiolingvistik, diskursiv va strategik kompetensiyalar.

REJA:

1. CEFR boyicha tavsiflar.
2. Kompetensiya va uning mazmun-mohiyati.
3. Lingvistik, Pragmatik, Sotsiolingvistik, Strategik kompetensiyalari.

Tayanch so'z va iboralar: texnologiya, baholash, mukammal, bosqich, erkin, kompetensiya, bilim, tayanch, ko'nikma, vosita, tizim, daraja, mazmun, mohiyat, nazariya, tasnif, rivojlantirish, nazorat qilish, aniqlash, nazorat, baholash.

1.CEFR bo'yicha tavsiflar

CEFR (Common European Framework of Reference for Languages – Umumiy Yevropa Til Ko'nikmasi Qolipi) tizimi butun Yevropa bo'ylab ishlatiladigan tillarni o'rganish, o'rgatish va baholashga doir masalalarni o'z ichiga oladi. Bugungi kundagi globallashuv va zamonaviy texnologik vositalar yordamida odamlarning bir-birlari bilan oson aloqa o'rnatishlari natijasida CEFR tizimi nafaqat Yevropada, balki Kolumbiya va Filippin kabi davlatlarda ham keng tadbiiq etilayapti. O'zbekistonda ham Prezidentning 2012-yildagi [Qaroridan](#) so'ng ingliz tilini o'rganish va o'rgatishga bo'lgan talab sezilarli darajada ko'tarildi. XX asrning o'rtalarida Yevropada ishlab chiqarish taraqqiy eta boshlagan va yangi ish o'rinlari yaratilib, ko'proq ishchi kuchiga talab orta borgan sari, Yevropaga ish izlab keluvchi va bu yerda butunlay yashab qolish niyatida tashrif buyurayotganlar soni ortib bordi. O'sha vaqtda Yevropada Ispan, Nemis, Fransuz va Italiyan tillaridan tashqari Ingliz tili ham keng miqyosda ishlatilardi. Yevropaga yashab qolish uchun kelayotganlar Yevropaning mahalliy aholisi bilan bemalol, muammosiz gaplasha olishlari kerak edi. Shuning uchun Yevropaga ishlash uchun kelayotganlar mahsus imtihonlar topshirishlari kerak bo'lgan. CEFR tizimiga asoslangan imtihonlar dastlab Yevropada amal qiladigan barcha tillar bo'yicha olingan bo'lsa-da, bugungi kunda CEFR tizimidan eng ko'p hollarda ingliz tilini o'qitish, o'rganish va baholashda foydalanilayapti. Chunki butun dunyo ingliz tilida gaplashayapti va bu til birinchi raqamli jahon tiliga aylanib ulgurgan.

CEFR tizimi [Yevropa Konsulligi](#) tomonidan 1989-1996 yillarda amal qilgan “Language Learning for European Citizenship” (“Yevropa Fuqaroligi uchun Til O'rganish”) dasturining tarkibiy qismi sifatida to'liq mukammallashtirilgan. 2001-yilning noyabr oyidan boshlab esa CEFR Yevropa tillarini bilish darajasini baholashda asosiy me'zon sifatida qabul qilingan.

CEFR tizimi tillarni bilish darajasini uchta: A, B va C guruhlariga ajratgan holda baholaydi. CEFR darajalari sifatida berilgan baho quyidagilarni anglatadi:

A1 va A2 darajalar – tilni endi o’rganayotgan, boshlang’ich bosqichdagi foydalanuvchi,

B1 va B2 darajalar – tildan erkin foydalana oladigan, o’rtachadan yuqori darajadagi foydalanuvchi;

C1 va C2 darajalar – tilni mukammal darajada biladigan foydalanuvchilar

CEFR asosidagi tilni bilish darajasini aniqlash imtihonlari asosan foydalanuvchilarni to’rt yo’nalish: gapirish, o’qish, tinglab tushunish va yozish ko’nikmalarining qay darajada rivojlanganligiga qarab baholaydi. Tizimda bu turdagi imtihonlarning har bir yo’nalishi uchun mahsus yo’riqnomalar, qoidalar va talablar mavjud. Shu bilan bir qatorda ushbu turdagi imtihonlarga tayyorgarlik ko’rish uchun ham alohida yo’nalish va ko’rsatmalar nazarda tutilgan.

Xulosa qilib aytganda, CEFR – Yevropadagi barcha gaplashiladigan, amalda bo’lgan tillarni bilish darajasini aniqlash, o’rganish va o’rgatish usullarini targ’ib qiluvchi til ko’nikmasi qolipi.

2. Kompetentsiya va uning mazmun-mohiyati.

“Kompetensiya” atamasiga nazar tashlar ekanmiz, uni ilk bora Amerika Qoshma Shtatlari Massachuseti universitetida 20-asrning 60-70 yillarida N.Xomskiy tomonidan til nazariyasi va transformatsion grammatikaga oid nazariy ma’lumotlarni shakllantirishda vujudga kelganligiga guvoh bolishimiz mumkin. Bu esa, tilshunoslikka esa ilk bor 1965-yili N.Xomskiy tomonidan “til kompetentsiyasi” (language competence) atamasi orqali kiritilgan. N.Xomskiyning fikricha, “Kompetentsiya – tilni qo’llash jarayonidagi faoliyatga yo’nalgan bilim, malaka va ko’nikmalar majmui”. R.Uayt esa “Kompetentsiya – inson hayoti shaxs motivatsiyasiga) asoslangan yaxlit kontseptsiya” sifatida tahlil qilingan. G’arbiy Yevropada bu atama 1970-yillarda paydo bo’ldi. N.Xomskiyning izdoshlari tilni potentsial bilish va haqiqiy til egasining o’z tili haqidagi bilim, ya’ni til kompetentsiyasi hamda har qanday holatlarda til ko’nikmalarini qo’llash, ya’ni til faolligi tushunchalarini o’zlashtira boshlashdi. **Kompetensiya** –fan bo’yicha egallagan nazariy bilim, amaliy ko’nikma va malakalarni kundalik hayotida duch keladigan amaliy va nazariy masalalarni yechishda foydalanib, amaliyotda qo’llay

olishdir.«O'zbek tilining izohli lug'ati»ning 2-jildida kompetentsiyaga shunday tarif berilgan:kompetentsiya [lot. competere- layoqatli, munosib bo'lmoq] 1.Muayyan organ yoki mansabdor shaxsning rasmiy xujjatlarda belgilangan vakolatlari doirasi, vakolat 2. Shaxsning biror bir sohadan xabardorlik, shu sohani bilish darajasi.

E.G. Azimov va A.A.Shukin kompetentsiya biror fanni o'qitish jarayonida shakllantiriladigan bilim, ko'nikma va malakalarning birligi; K.D. Riskulova fikricha: «Kompetentsiya» u yoki bu kasb egasiga zarur bo'lgan kasbiy qonuniyatlar, tamoyillar, talablar, qoidalar, burch, vazifa hamda majburiyatlar, shuningdek, shaxsiy deontologik me'yorlar yig'indisini anglatadi.

Kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim–o'quvchilarda egallangan bilim, ko'nikma va malakalarni o'z shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida amaliy qo'llay olish kompetensiyalarini shakllantirishga yo'naltirilgan ta'limdir.

Tayanch kompetensiyalar:

1. Kommunikativ kompetensiya

- jamiyatda o'zaro muloqotga kirishish uchun ona tili va birorta xorijiy tilni mukammal o'zlashtirish hamda muloqotda samarali foydalana olish;
- o'z fikrini og'zaki va yozma tarzda aniq va tushunarli bayon qila olish, mavzudan kelib chiqib savollarni mantiqan to'g'ri qo'ya olish va javob berish;
- ijtimoiy moslashuvchanlik, o'zaro muloqotda muomala madaniyatiga amal qilish,jamoaviy hamkorlikda ishlay olish;
- muloqotda suhbatdosh fikrini hurmat qilgan holda o'z pozitsiyasini himoya qila bilish, uni ishontira bilish;
- turli ziddiyatli vaziyatlarda o'z ehtiroslarini boshqarish, muammo va kelishmovchiliklarni hal etishda zarur(konstruktiv) bo'lgan qarorlarni qabul qila olish.

2.Axborot bilan ishlash

- mavjud axborot manbalaridan (internet, televizor, radio(audio–video yozuv)telefon, kompyuter, elektron pochta va boshq.) foydalana olish;
- media vositalaridan zarur bo‘lgan axborotlarni izlab topa olish, saralash, qayta ishlash, uzatish, saqlash, xavfsizligini ta’minlash va foydalanishda media-madaniyatiga rioya qilish;
- ma’lumotlar bazasini yarata olish, asosiylarini tanlay olish va ularni tahlil qila bilish;
- kundalik faoliyatida uchraydigan hujjatlar bilan ishlay olish(oddiy tabriknomalar yoza olish, anketalarni to‘ldirish, mehmonxona ro‘yxatida o‘zi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni qayd eta olishi va boshq.)

3. Shaxs sifatida o‘z-o‘zini rivojlantirish kompetensiyasi

- shaxs sifatida doimiy ravishda o‘z-o‘zini rivojlantirish, jismoniy, ma’naviy, ruhiy va intellektual kamolotga intilish;
- hayot davomida o‘qib o‘rganish, bilim, tajribani mustaqil ravishda muntazam oshirib borish;
- o‘z xatti-harakatini advokat baholash, o‘zini nazorat qila bilish, halollik, to‘g‘rilik kabi sifatlarga ega bo‘lish;
- o‘qib-o‘rganganlari va hayot tajribasidan foydalangan holda kundalik turmushda uchraydigan muammolarni hal eta olish.

4. Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi

- Jamiyatda bo‘layotgan voqea, hodisa va jarayonlarga dahldorlikni his etish va ishtirok etish;
- o‘zining fuqarolik burch va huquqlarini bilishi, unga rioya qilish (ya’ni xaridor, saylovchi, mijoz, ishlab chiqaruvchi sifatida faoliyat yurita olish);

- mehnat va fuqarolik munosabatlarida muomala, iqtisodiy, huquqiy madaniyatga ega bo‘lish;
- kasbiy mavqeyining o‘rishiga intilish bilan jamiyat va oilasi manfaatlari uchun xizmat qilish, yordamga muhtojlarga saxovatli bo‘lish.

5. Umummadaniy kompetensiyalar

- vatanga sadoqatli, insonlarga mehr-oqibatli hamda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga e‘tiqodli bo‘lish;
- badiiy va san‘at asarlarini tushunish, ta‘sirana olish;
- orasta kiyinish, yurish-turishda madaniy me‘yorlarga va sog‘lom turmush tarziga amal qilish;
- umumbashariy ahamiyatga ega bo‘lgan qadriyatlarni (urf-odatlar, marosimlar, milliy-madaniy an‘analar va h.k.) bilish, unga hurmat bilan munosabatda bo‘lish;
- o‘zgalarga nisbatan mehr-muruvvat, saxiylik, o‘zgalarning dunyoqarashi, diniy e‘tiqodi, milliy va etnik xususiyatlari, an‘ana va marosimlarini hurmat qilish;
- xalqining tarixiy, ma‘naviy va madaniy merosini avaylab asrash, jamiyatda o‘rnatilgan odob-axloq qoidalariga rioya qilish.

6. Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish hamda foydalanish kompetensiyasi

- aniq hisob-kitoblarga asoslangan holda shaxsiy, oilaviy, kasbiy va iqtisodiy rejalarini tuza olish;
- shaxsiy, ijtimoiy va iqtisodiy munosabatlarda hisob-kitob bilan ish yuritish;
- kundalik faoliyatda turli formula, model, chizma, grafik va diagrammalarni o‘qiy olish va foydalanish;

- inson mehnatini yengillashtiradigan , mehnat unumdorligini oshiradigan va qulay shart-sharoitga olib keladigan fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish hamda foydalana olish.

3. Lingvistik, Pragmatik, Sotsiolingvistik, Strategik kompetentsiyalari.

Lingvistik kompetensiya: kundalik hayotda faol qo‘llaniladigan ijtimoiy mavzularga oid va kasb-hunarga yo‘naltirilgan lug‘at boyligini oshirib borish, o‘zbek tilining so‘z yasalihi vositalarini bilish lug‘at boyligini oshirib borishdan iborat bo‘lib, bularning barchasi o‘zbek tilining fonetikasi, leksikasi va grammatikasi bo‘yicha nazariy bilimlarni muayyan izchillikda egallash vositasida amalga oshiriladi.

Pragmatik kompetensiya kundalik hayotda o‘zbek tilidan egallagan bilim, ko‘nikmalari asosida muayyan nutqiy vaziyatda mustaqil muloqotga kirisha olish qobiliyatini, o‘zaro suhbatlashish, suhbatga qo‘shilish, suhbatdoshining nutqini sekinlashtirishga undashga oid muomala odobi vositalarini, tushunmovchiliklar paydo bo‘lganda qayta so‘rash, uzr so‘rash orqali murakkab vaziyatlardan chiqib keta olish, tilning amaliy imkoniyatlaridan o‘rinli foydalana olish qobiliyatini shakllantirishni nazarda tutadi.

Sotsiolingvistik kompetensiya (sociolinguistic competence) bevosita lingvokulturologiya va madaniyatlararo muloqot bilan bog‘lanadi. Kommunikatsiyani amalga oshirishni ta‘minlashda nutq faoliyatida grammatika, leksika va fonetika turlarini nutqda to‘g‘ri qo‘llash qobiliyatidir.

Sotsiokulturologik (ijtimoiy-madaniy) kompetensiyada eshitilgan nutqni shu xalqning milliy xususiyatlarini bilgan va o‘z ona tili va milliy an‘analari bilan taqqoslagan holda muayyan nutqiy vaziyatga mos lingvistik shakl, ifoda usulida taqdim eta olish qobiliyatini shakllantirish. Ushbu layoqat o‘quvchi-talabalarni o‘z xalqining boy tarixi, milliy qadriyatlarini, urf-odatlarini va ularni o‘zida aks ettirgan boy adabiy-badiiy meros bilan yaqindan tanishish, o‘zbek adabiyoti namunalari,

jahon milliy madaniyatiga hissa qo`shgan o`zbek xalqi vakillarining ijodiy merosini o`qib o`rganish orqali shakllantiriladi.

Strategik kompetensiya (Strategic competence) kompensator kompetensiya deb ham yuritiladi. Til o`rganuvchi muloqotga kirishganda nutq jarayonida til bilmay qolishlik va tildagi kamchiliklar strategik kompetensiya orqali to`ldiriladi. Strategiya til o`rganuvchilarni tilni samarali va oson o`rganishga yo`l ochadi.

Quyida tilga olingan kompetensiya turlari chet tilini o`rganishda bevosita va bilvosita xizmat qiladi. Xususan, kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishda ularning o`rni beqiyosdir.

Nazorat savollari:

1. CEFR ingliz tili darajalari: tamoyillar, tasniflar va misollar
2. Til va nutqiy kompetensiyaning til ta`limidagi o`rni
3. Kommunikativ kompetensiyaning asosiy komponentlari va ularning bir biridan farqi
4. Kompetensiya buyicha olimlarning qarashlari

4- mavzu: Kommunikativ grammatika va kommunikativ leksika.

Reja:

- 1. Tillarni o`qitishda kommunikativ yondashuv**
- 2. Leksikani kommunikativ o`qitish**
- 3. Grammatikani kommunikativ o`qitish**

Kommunikativ kompetensiyani tadqiq qilishning kommunikativ yo`nalishi. Kommunikativ kompetensiyaning lingvistik va madaniy tadqiqot yo`nalishi. Kommunikativ-funksional grammatika, matnni tahlil qilish, kommunikativ registr, sintaksis, xayoliy bo`lmagan matn.

Qo`llaniladigan ta`lim texnologiyalari: *dialogik yondashuv, muammoli ta`lim, BBBI, munozara, o`z-o`zini nazorat.*

4. Tillarni o'qitishda kommunikativ yondashuv

Har qanday tilni o'rgatish yoki o'rganish tasodifan sodir bo'lmaydi; bu juda tizimli jarayon bo'lib o'ziga xos texnikalar, usullar va yondashuvlar yordamida amalga oshiriladigan jarayondir. Xorijiy tillarni muntazam ravishda o'rganish uchun zamonaviy materiallar, turli xil yondashuvlar, eng yangi usullardan foydalanish va eng yuqori darajada o'rganishni ta'minlaydigan qiziqarli shaklda taqdim etish muhimdir. 1963-yilda amerikalik amaliy tilshunos Edvard Entoni konseptualizatsiya va tashkiliylikning uch darajasini aniqlab bergan. Ular yondashuv, usul va texnika deb ataladi. Uning fikriga ko'ra yondashuv – bu til va tini o'rganish bo'yicha taxminlar va e'tiqodlarni aniqlash darajasi. Yondashuvning bir necha turlari mavjuddir. Ular strukturaviy yondashuv, kommunikativ yondashuv, eklektik yondashuv, vaziyatga yondashish va boshqalar. Har qanday xorijiy tillarni o'qitish va o'rganishda usullar, yondashuvlar hamda texnik vositalar muhim ahamiyatga ega. Usullar, yondashuvlar va texnik vositalar tilni o'qitish maqsadlariga erishish uchun til qobiliyatlari va til ko'nikmalarini qoniqarli ravishda rivojlantirish uchun tilni o'qitish dasturini amalga oshirish vositasidir. Barcha usullar, yondashuvlar va metodlarni bir xil darajada samarali va bir vaqtning o'zida tilni o'qitish jarayonida qo'llab bo'lmaydi, chunki til o'qitish usullari va uslublari muayyan tilning maqomi o'zgarishi bilan o'zgaradi. Bir usul, yondashuv yoki texnikani cheklash va kamchiliklarni bartaraf etishga urinishlar natijasida, boshqa usul, yondashuv yoki texnikaning paydo bo'lishiga olib keladi. Xorijiy tillarni o'qitish va o'rganishda ko'plab usullar, yondashuvlar va texnikalar muhimdir va ularning barchasi o'ziga xos xususiyatga egadir. Stem (1983) yondashuvga shunday ta'rif beradi: “Yondashuv - bu tilning tabiati va tillarni o'qitish va o'rganish xususiyatlari bilan bog'liq bo'lgan o'zaro bog'liq taxminlar to'plami. Yondashuv aksiomatikdir. Unda o'qitiladigan fanning mohiyati tavsiflanadi.” Kommunikativ yondashuv xususida ko'plab tilshunos olimlar o'z tadqiqot olib borganlar. 1960-yillarning oxirida ingliz tilidagi an'analarning o'zgarishlaridan ko'rish mumkin. Kommunikativ yondashuv Robert Langs tomonidan ishlab chiqilgan va Angliya va Amerikalik ba'zi mutaxassislar tomonidan qo'llab quvvatlangan. Xiymens (Hymens)ning fikricha

kommunikativ kompetensiya umumiy matnlardan samarali foydalanishni anglatadi. Keyinchalik bu tilning qiymatiga asosiy e'tiborni qaratgan holda yondashuvni targ'ib qilgan va bu kommunikativ yondashuv deb atala boshlagan. 1976-yilda kommunikativ yondashuv (Wilkins) Uilkins tomonidan qo'llab quvvatlangan. Ushbu yondashuv FunkSIONAL yondashuv sifatida xam foydalanilgan, chunki u funksional maqsadlar uchun tildan foydalanadigan o`quv dasturlarini o`z ichiga olgan. Yondashuvning asosiy yo`nalishi o`quvchilarga aniq kommunikativ funksiyalarni bajarish uchun tildan foydalanishni o`rgatishdir. Kurianning (Kurian) (2006) ta'kidlashicha "Kommunikativ yondashuv bu o`qitishning tamoyillari to`plami, shu jumladan tuzilma emas, balki mazmunli aloqaga qaratilgan metod va o`quv dasturlar bo`yicha tavsiyalardir. Ushbu yondashuvda talabalarga tilni o`rganish o`rnida tildan foydalanishni bajarish vazifalari beriladi." Kommunikativ yondashuv asosida xorijiy tillarni o`qitish bir necha nazariy asos bo`linadi:

- 1. Muloqot tamoyili:** muloqotni o`z ichiga olgan tadbirlar tilni egallashga yordam beradi;
- 2. Vazifa prinsipi:** talabalarni real hayotdagi vazifalarni bajarish bilan shug`ullanadigan faoliyatlar tilni egallashga yordam beradi;
- 3. Aniqlik prinsipi:** o`quvchilar tildan haqiqiy va mazmunli foydalanishga yordam beradigan faoliyat bilan shug`ullanishlaridir. Bu yondashuvning asosiy maqsadi o`quvchining kommunikativ qobiliyatini rivojlantirishdir. O`quvchi tilni har qanday vaziyatda to`g`ri, ma'noli, mazmunli ishlatishda o`z mahoratini rivojlantiradi.

Kommunikativ yondashuv o`zining tamoyillariga, xususiyatlariga va mohiyatiga egadir. Kommunikativ yondashuvning tamoyillarini Maykl Kanale va Meril Svayn (1984) quyidagicha tasniflagan:

1. Kommunikativ kompetensiya, grammatik kompetensiya, ijtimoiy lingvistik kompetensiya yoki diskurs kompetensiyasidan juda kichik birlikdir. Kommunikativ yondashuvning asosiy maqsadi o`quvchilar uchun ushbu turdagi bilimlarni birlashtirishga yordam berishdir. Til o`rganuvchilar yondashuvning bir shaklini boshqasiga nisbatan ustun qo`ymasliklari kerak.

2. Kommunikativ yondashuv o`quvchining kommunikativ ehtiyojlarini qondirishga asoslangan bo`lishi kerak. Bunda grammatik kompetensiya, ijtimoiy lingvistik kompetensiya yoki diskurs kompetensiyalar bir biri bilan bog`liq bo`lishi lozim.

3. Kommunikativ yondashuv hech qachon o`quvchining ona tilini tekshirmasligi lozim, bu o`quvchining o`z ona tilidan kerakli ravishda foydalanishni rag`batlantiradigan yondashuvdir.

4. Xorijiy tilni o`rganayotgan o`quvchi haqiqiy aloqa ehtiyojlarini qondirishi va o`rganayotgan xorijiy til sharoitlariga qiziqish bilan javob berishi, ushbu tilning yuqori malakali ma`ruzachilari bilan mazmunli kommunikativ aloqada ishtirok etish imkoniyatiga ega bo`lishi kerak.

5. Xorijiy tilga yo`naltirilgan kommunikativ yondashuv dasturining asosiy maqsadi o`quvchining xorijiy tilda ularning kommunikativ ehtiyojlarini qondirish uchun zarur bo`lgan ma`lumot, amaliy va tajriba bilan ta`minlashdan iborat bo`lishi lozim. O`quvchilarga o`rganayotgan xorijiy tilining kommunikativ muloqotda zarur bo`lgan ijtimoiy madaniy bilimlarni berishlari kerak. Kommunikativ yondashuv o`ziga xos xususiyatlarga egadir. Ko`pgina yozuvchilar va tadqiqotchilar kommunikativ yondashuvning turli xususiyatlarini o`rgangan, ularni quyidagicha umumlashtirish mumkin.

1. Kommunikativ yondashuv ko`proq tarkibiy (strukturaviy) o`qitishni ma`qullamaydi. U juft va guruh bo`lib amaliy ishlashni ma`qullaydi.

2. Ma`noga asoslangan ta`lim kommunikativ tilni o`qitishda muhim o`rin tutadi.

3. Kommunikativ yondashuv tarkibiy qism bilan emas, balki tabiiy munozaralar bilan shug`ullanadi.

4. Kommunikativ yondashuv o`quvchilarning kommunikativ ehtiyojlarini inobatga oladi va shuning uchun sinfdagi tadbirlar axborot olishga, fikr mulohaza yuritishga va tilning boshqa turlari singari kommunikativ faoliyatga asoslanadi.

5. Kommunikativ yondashuv o`quvchilarda sharhlash qobiliyatini rivojlantirishga harakat qiladi.

6. Kommunikativ yondashuv o`quvchilarga mazmunli kommunikativ hamkorlikda qatnashish uchun maksimal imkoniyatlar yaratishni taklif qiladi.

7. Kommunikativ yondashuv o`quvchilarga yo`naltirilgan yondashuv ekanligiga ishonadi va o`quvchilarni o`qishda avtonomligi rag`batlanishi kerak deb hisoblaydi.
8. O`qituvchilarning roli tashabbuskor, rahbar va kommutator sifatida cheklangan bo`lishi kerak.
9. Kommunikativ tilni o`qitishning asosiy xususiyati o`quvchini vaziyatga moslashtirishdir.
10. Kontekstualizatsiya asosiy shartdir.
11. Til o`rganish bu muloqot qilishni o`rganishdir.
12. Tarjimadan o`quvchi muhtoj bo`lgan yoki undan foyda ko`radigan joylarda foydalanish mumkin.
13. O`rganish o`quvchi tomonidan sinchkovlik va xato natijasida yaratiladi.
14. Har bir o`quvchi kommunikativ muloqotga qatnashishda teng imkoniyatga ega. Shunday qilib, ushbu yondashuvning asosiy maqsadi o`quvchilarda kommunikativ qobiliyatlarini va kommunikativ ko`nikmalarni rivojlantirishdir.

1. Grammatikani kommunikativ o`qitish Juda ko`p lingvistlar ingliz tili grammatikasini o`qitishda qaysi tomondan yondashish ustida baxs munozaralar yuritib kelishmoqda. Ingliz tili grammatikasini o`qitishda ikki xil yondashuv yuzaga kelgan: a)so`z birikmalari va gapning to`g`ri tuzilishi, so`z tartibining bexato va tog`ri yo`lga qo`yilishiga orientatsiya bilan o`qitish; b)kommunikativ kompetensiyasi (muloqot asosida kamroq nazorat, tekshiruv asosida) muhitda o`qitish; Har ikki yondashuvdan ham o`rinli va navbat bilan foydalanish ingliz tilida grammatikani og`zaki muloqotda to`g`ri ishlatishga imkon beradi. Har ikki yondashuvga ham kerakli uchun bergan holda o`rganuvchilarning til o`rganishdan ehtiyoj va maqsadlarini amalga oshirish uchun o`rgatish mumkin: -Talabalar Grammatik strukturalar bilan induktiv va deduktiv mashq qilishlari kerak; -moslashtirilgan va haqiqiy materiallardan foydalanish; - gap-darajali, diskurs materiallaridan foydalanish; -ochiq kommunikativ interaksiya va tekshirish, nazorat ostidagi grammatik strukturalar bo`yicha og`zaki fikr yuritish;1 Lekin grammatikani og`zaki nutq sharoitida o`qitishning bir o`ziga xos xususiyati borki, bu o`qituvchidan ham nazariy, ilmiy fikr yuritish, ham amaliy yondashuvni alab qiladi. Negaki Grammatik

savodxonlikni shakllantirish, talabalarnig Grammatik jihatdan to'g'ri gapirishini ta'minlash va nazorat qilish uchun ilmiy jihatdan yondashuv talab etilsa, huddi shuningdek, tashkil qilingan erkin kommunikativ muloqotda ham ko'nikma hosil qilingan grammatik strukturalarni erkin qo'llay bilishini ta'minlash va nazorat qilish amaliy yondashuvni talab qiladi. Grammar-based speaking teaching deb yuritiladigan grammatikaga asoslangan og'zaki nutqning o'qitilishi aspekti hozirda eng ommabop aspektlardan biri hisoblanib kelmoqda. Lekin juda ko'p ilmiy manbalarda Stefen Krashen singari naturalist lingvist olimlarning "zero grammar" (grammatikadan holi) g'oyalari hozirgi kunda inkor etilib kelinmoqda.

Bu borada TESOL Quarterly ilmiy maqolalar to'plamidagi nashr etilgan maqoladan quyidagi jumla buning isboti bo'la oladi: "Grammatikani eksplisit instruksiyalar orqali tushuntirib, olingan bilim bo'yicha adaptatsion, so'ngra kommunikativ mashqlarning bajarilishi chet tilining kommunikativ o'rganilishi uchun juda muhim omildir" 2 . Grammatikaning og'zaki nutq sharoitida o'qitilishi ikkinchi tilning samarali o'qitilishida asosiy prinsip bo'lib, eng innovatsion aspect bo'lib, yildan yilga unga turli yangiliklar kiritib borilmoqda. Grammatika bo'yicha, ayniqsa ingliz tili bo'yicha hammasi xilma xil. Grammatikni og'zaki nutq sharoitida o'qitishni Grammatik tarjima metodidan tubdan farq qilishi ma'lum. Chunki, og'zaki nutq sharoitida grammatika o'qitilishida tarjima, qoidalarning yod olinishi holatlari yo'q, ko'rsatmalar ham ona tilida berilmaydi, faqat vaziyatga ko'ra ona tili ozroq qo'llanilishi mumkin, unda asosan grammatikani og'zak nutqqa joriy qila olish ko'nikmasiga e'tibor beriladi. Grammatikani o'qitish materiallari haqida umumiy gap boradigan bo'lsa, bu borada yana shunday manbalar ham borki, ular grammar-handbook, workbookda turli jamlangan mashqlardan tashkil topgan bo'ib, ularni bajarish davomida og'zaki, yozma nutq, o'qish yoki tinglab tushunish ko'nikmalarini rivojlantirilishiga hech qanday afzallik bo'lmasa ham, til grammatikasiga adaptatsion ko'nikma hosil qilinadi.

Bu kabi mashqlar eksplisit bo'lsa ham, kamroq amaliyotni talab qiladi, unda kommunikativlik ham yo'q. Ular shunchaki grammatikani eksplisit darajada aks ettiradigan manba sifatida foydali bo'lishi mumkin xolos. Umumiy hisobda

grammatikani o'qitish materiallari quyidagicha tasniflanadi: 1.Grammatikani o'qitish bo'yicha o'qish, tinglab tushunish, og'zaki va yozma nutq kabi barcha ko'nikmalarni Grammatik jihatdan puxta rivojlantirishga mo'ljallangan materiallr bo'lib, unda kerakli materiallar yetarlicha amaliyot va mashq bilan ta'minlangan; 2.Grammatikani o'qitish materiallarining yana bir turi grammatikani kommunikatsion va adaptatsion darajada rivojlantirishga mo'ljallangan mashqlar bilan ta'minlangan; Umumiy darajada grammatikaning o'qitilishi yuqoridagi kabi materiallar asosida grammatika strukturalardan kreativ foydalanib, kommunikativ amaliyotni ta'minlaydigan mashqlardan tashkil topsa jarayon samarali natija berishi mumkin. Kommunikativ amaliyot talabalarning o'z shaxsiy hayoti asosida amalga oshiriladi: ularning fikrlari, tajribalari, hayotiy situatsiyalar va hk.lar.

Aynan kommunikativ grammatikaning qoidalariga asosan, o'rganuvchilarning Yoshi, qiziqishlari, til o'rganishdan ehtiyoj va maqsadlarini hisobga olgan holda turli dastur va materiallar tashkil qilish g'oyasi ilgari surilib shakllandi. Bu yo'l bilan o'qituvchilar xususiy strategiyalarini shakllantirib, tegishli tematik mavzuni grammatik mavzu bilan bog'lab og'zaki nutq darsiga joriy qilishlari mumkin. Bu esa talabalarning ingliz tilida so'zlashuv jarayonida intuitsiya va kreativligini oshiradi. Bu o'rinda grammatikaning og'zaki nutqda o'qitilishi borasida

Richardsning quyidagi qarashlari o'rinli fundament vazifasini bajara oladi:

- ikkinchi til grammatikasining og'zaki nutqda rivojlantirilishi grammatik mavzu va og'zaki nutq tematik mavzusining o'zaro bog'liqlikda interaksion va kommunikativ tashkil qilinishi orqali oson kechishi mumkin;
- Og'zaki nutqda grammatik strukturalarning adaptatsion va kommunikativ o'rganishga maqsadli yo'naltirilgan mashqlar va topshiriqlar talabalarga ma'no va til strukturalarini moslashtirish, til resurslarini kengaytirish, mazmunli interpersonal muloqot jarayonlarini o'rinli qatnashish imkonini beradi;
- Kommunikativ grammatik kompetensiya bir nechta til ko'nikmalar va modalliklarning qo'llanilishini talab qiladi.

2. Leksikani kommunikativ o'qitish

3. Chet tillarini samarali o'rganish, yangi lug'at boyligini yanada osonroq o'zlashtirish masalasi ko'pgina olimlar tomonidan tadqiq etilgan bo'lsada, doim dolzarb masala bo'lib hisoblanadi. Bugungi jahon glaballashuvi davrida zamon talabi bilan mazkur masalaga bunday yondashilishi albatta tabiiy holdir. Ko'pincha chet tilini o'rganishda bilingval ta'limni tashkil etilishi bir necha chet tillarini chuqurlashtirib o'rganishga imkon beradi. Ba'zan chet tillarini o'rganishga ajratilgan dars soatlari va maxsus darsliklar soni darsni o'zlashtirishga yetarli darajada bo'lmasligi muammolariga duch kelinadi. Mazkur muammolar yechimini topishda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari(AKT) va Internet tarmog'idagi resurslar muhim o'rin tutadi. O'quvchi-yoshlarning darsga qiziqishini oshirishda AKT¹ va Internet tarmog'idagi resurslar ta'lim samarasini va shu jumladan, til o'rganishga motivatsiyani oshiruvchi omil bo'la oladi. AKT vositasida o'qituvchi o'z xususiy elektron ta'limiy resurslarini yaratib borishi imkoniyati mazkur soha rivojida muhim ahamiyatga molik.

4. Shuni alohida ta'kidlash zarurki, agar o'quvchi o'z ona tilini yaxshi bilsa, qonun-qoidalariga amal qilish malakasiga ega bo'lsa, uning mavjud lingvistik tajribasi boshqa chet tilini o'zlashtirishiga ham zamin bo'ladi. Tilning grammatik tushunchalarini va atamalarini tezroq o'zlashtirishiga yordam beradi. Shu tariqa, tillararo o'xshashlik va farq qiluvchi omillarini o'rganib, boshqa tilni oson o'zlashtiradi. Fonetik, leksik, grammatik darajada til hodisalarini solishtirish lingvistika sohasini boyituvchi material beradi. Shu boisdan, tillararo qiyosiy tahlil muhim ahamiyatga molik. Bu chet tilidagi yangi materialni shunchaki o'zlashtirishgina emas, balki unga o'quvchi-talabalarda alohida qiziqish bilan yondashuvni ham ta'minlaydi. Agar o'quvchi bir tilning qoidalari va asosiy tushunchalarini yaxshi bilsa, boshqa tilni ham o'rgana olishiga ishonch bilan qaraydi. Shaxsning lingvistik bilimlarni egallab borayotganligi go'yo ilmiy yangiliklarni o'z ongida kashf etib borayotgandek, ham qiziqarli, ham yanada ko'proq bilish motivatsiyasini kuchaytiradi.

5. Bu borada dars jarayonida o'qituvchi tillar orasidagi farqlar va o'xshashliklarni tushuntirib borishi ham katta ahamiyatli o'rin tutadi, ayniqsa, zamonaviy axborot texnologiyalari vositalaridan, elektron resurslardan foydalanib, dars o'tilishi o'quvchi-talabalarga darsni oson o'zlashtirish va tilning leksik hamda grammatik hodisalarini qiyosiy o'rganib, turli mashqlarni bajarishda katta imkoniyat yaratadi. Bundan tashqari, keyingi davrlarda ko'payib borayotgan til o'rganishga oid maxsus saytlar nafaqat murakkab va zerikarli bo'lgan til o'rganish — leksik birliklarni o'zlashtirish jarayonini osonlashtiradi, balki mazkur resurslar yordamida ko'ngilochar o'yinli mashqlarni zavqlanib bajarish bilan ma'lum ma'noda ma'naviy oziqa, qolaversa, dam olish imkonini yaratishiga ham e'tibor qaratish zarur. Bunday elektron lug'atlarga www.lingualeo.ru va boshqalar misol bo'la oladi. Shu bilan birga, bunday lug'atdagi har bir so'z foydalanuvchiga ko'p bor qayta taqdim etilishi mumkin, bu esa uni o'zlashtirishda mazkur so'zning to'g'ri yozilishi, tilda so'zlashuvchi xalq vakillari tomonidan leksik talaffuzi xotirada mustahkam joylashib, matnlarni tarjima qilishda qiyinchiliklarni bartaraf etishga yordam beradi.

5- mavzu: Tilni diskursiv yondashuvda o'qitish: matnning kognitiv-diskursiv tavsifiy xususiyatlari.

Reja:

- 1. Kognitiv lingvistika, uning vujudga kelishi, asosiy tushunchalari va yo'nalishlari**
- 2. Matn va diskurs munosabati masalasi**
- 3. «Kognitiv muqobillik» tamoyili**

Tayanch so'z va iboralar: kognitiv lingvistika, kognitivsferalar, kognitiv kontekstlar, Kognitiv tilshunoslik, germeneytika

Keyingi vaqtda matnni kognitiv-diskursiv xususiyatlarini ham tadqiq qilish borasida ilmiy izlanishlar vujudga kelmoqda.. Ammo matnning kognitiv-diskursiv tavsifiy xususiyatlari borasida fikr bildirishdan avval kognitiv lingvistika, uning vujudga kelishi, asosiy tushunchalari va yo'nalishlari xususida ma'lumot berish


o'rinli deb hisoblaymiz, chunki kognitiv lingvistika borasida o'zbek tilida manbalar juda kam.

Kognitiv lingvistika, uning vujudga kelishi, asosiy tushunchalari va yo'nalishlari

Til birliklari va "ular asosida yotuvchi bilim strukturalari" mental birliklardir, ular o'zlarini belgilar sistemasi sifatida namoyon qilib, borliqni anglashda va mavjud bilimlarni uzatishda faol ishtirok etadi. F. de Sossyur fikricha, belgilar sistemasi ifoda plani va mazmun planiga ega bo'lgan holda ma'lumotni muayyan shaklda uzatuvchi inson ishtirokini taqozo qiladi.

An'anaviy lingvistikada, asosan, belgining ifoda plani va mazmun planigae'tibor qaratilar edi, kommunikatsiya jarayonining realizatori bo'lgan insonningo'zi esa tadqiqotchilarning nazaridan chetda qolib keldi. Voholangki, "ifodaplani ham mazmun plani ham ushbu jarayonni amalga oshirayotgan insontomonidan tanlanadi". Bu tanlov inson tomonidan uning falsafiy, entsiklopedik,etnografik, lingvokulturologik bilimlari, kommunikativ akt kechayotgan vaziyat,insonning emotsional holati va b. asosida amalga oshiriladi. Shu tariqa, qiyosiy-tarixiy, struktur, funktsional va kommunikativ lingvistika bilan bir qatordakognitiv lingvistika ham shakllanib bordi. Kognitiv lingvistika tilni "insonongida fikrlarni shakllantiruvchi va ifodalovchi, bilimlarni saqlovchi va tashkilqiluvchi vosita" sifatida o'rganadi. Tilni shunday tushunish va uni tadqiqqilishga bo'lgan bunday yondashuv tilga kognitiv yondashuv nomini oldi. Tilni kognitiv yondashuv asosida tadqiq qilish kognitsiyaning til ifodasini o'rganish bilan bog'langan. N.N.Boldiryov fikricha: " Kognitsiya –bu ma'lumotlarni, bilimlarni olish, qayta ishlash, eslab qolish, xotirada tiklash va foydalanishning har qanday ongli yoki ongsiz jarayonidir.

U o'zida quyidagi psixologik jarayonlarni mujassamlashtiradi:



Kognitiv lingvistikaning shakllanishida tilshunoslikdagi quyidagi yo'nalishlar nazariy asos sifatida xizmat qildi:

1) semasiologik nazariya (Yu.D.Apresyan, N.V.Nikitin va b.);



2) semasiologik grammatika nazariyasi (YU.S.Stepanov);



3) tilni mantiqiy analiz qilish nazariyasi (N.D.Arutyunova);



4) nutqiy tafakkur nazariyasi (S.D.Katsnelson);



5) nominatsiya nazariyasi yoki onomasiologik nazariy(E.S.Kubryakova);



6) germenevtika (G.I.Bogin);



7) nutqiy faoliyatning psixologik konseptsiyalari (A.R.Luriya,A.A.Leontyev va b.).



Tilshunoslikni kognitsiyaning bilimlarni til shaklida kodlashtirilgan turli strukturalari bog'langan aspekti qiziqtiradi. Shundan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, kognitiv lingvistikaning asosiy vazifasi tilda aks etgan bilimlar

sistemasini, ya'ni bilimlarni uzatish, saqlash, tashkil qilish, xotirada tiklash va bilimlarga ta'sir etishning til shakllarini o'rganishdir. Kognitiv lingvistikaning asosiy maqsadi – “tilni tadqiq qilish orqali bilimlarning turli strukturalariga kirib borish hamda til va ular o'rtasidagi bog'liqliklarni tavsiflash”dan iboratdir. Kognitiv lingvistikaning bosh tadqiq ob'ekti sifatida kognitiv faoliyat sifatidagi til qatnashadi, zero til **“bilishning ajralmas qismi bo'lib, madaniy, psixologik, kommunikativ va funksional faktorlarning o'zaro aloqasini aks ettiradi”**.

Kognitiv lingvistika XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab juda tez rivojlandi. U kognitiv fan zahirida shakllandi. Kognitiv fan fanlararo bog'liqlik xususiyatiga ega fan bo'lib, u “insonning kognitiv imkoniyatlarini yagona mental mexanizmga birlashtirish va ularning o'zaro aloqasi hamda o'zaro ta'sirining umumiy printsiplarini tadqiq qilish bilan shug'ullanadi”. Kognitiv lingvistikaning paydo bo'lishi tadqiqotchilarning borliq, tafakkur, ong va tilning o'zaro aloqasi hamda fikr ijod qiluvchi va nutqni vujudga keltiruvchi insonga bo'lgan qiziqishining o'sishi bilan bog'liqdir. Bu bilan bog'liq ravishda til “borliqning inson aqli tomonidan qay tarzda ko'rilganligi va tushunilganligini, borliq ong tomonidan qay tarzda qayta ishlanib, kategorizatsiya qilinganligini aniqlovchi vosita” sifatida qarala boshlandi. “Ong, -deb yozadi E.S.Kubryakova, bu miyaning shunday tarkib toptiruvchi infrastrukturasi, unda inson hayoti davomida to'planilgan tasavvurlar, taassurotlar, his-tuyg'ular va fikrlar ko'rinishidagi obrazlarni yoki yagona konseptual sistemaning konseptlarini aks ettiruvchi barcha mental tajriba mujassamlangan bo'ladi”. Ong “kognitiv daraja sifatida” ikki qismga bo'linadi: til ongi va tilga taalluqli bo'lmagan ong. “Inson ongi nafaqat o'zaro bog'langan mantiqiy hukmlar, tushunchalar va aqliy xulosalar sistemasi shaklida to'planilgan hayotiy tajriba, borliq va o'zi haqidagi bilimlar yig'indisini, balki verbal bilimlar, tilni, uning morfologik, fonologik, mantiqiy, pragmatik, sintaktik va b.sistemalarini bilishni ham o'zida mujassamlashtiradi. Bu bilan til ongi boshqa “bilimlar bloki”ning ichiga kirib boradi va ongimizning eng muhim qismi hisoblanadi”. Shu tariqa, til ongi, bu – ongning “ til ma'nolariga ega yig'indidan iborat qismidir”.Kognitiv lingvistika nuqtai nazariga ko'ra ong to'plangan bilimlar

hisoblansa, ushbu bilimlarning yig'uvchisi bo'lib tafakkur hisoblanadi. Ko'rinadiki, "tafakkur va ongning mavjud bo'lishi va joriylanishi o'zaro shartlangan: ong (to'plangan bilimlar holati) tafakkur jarayonini ta'minlab beradi, u esa, o'z navbatida, bilimlar (ongning) to'planish va sistematizatsiya qilinish manbai hisoblanadi". Inson tomonidan bilimlar to'plash, ya'ni tafakkur jarayoni ikki vaziyatning mavjudligi sharti bilan kechadi. Bu, birinchi tomondan, tafakkur jarayonida borliqning aks etishi bilan, ikkinchi tomondan, uni kodlashtiruvchi belgi sifatidagi tilning mavjudligi bilan bog'lanadi.

T.A.Fesenko ta'kidlaganidek: "Agar ong (tafakkur ham) fikrning mantiqiy shakllarida borliqni aks ettiruvchisi bo'lsa, til (turli til formulalari vositasida) tafakkurimizning ifodalovchisi sifatida qatnashadi". Shunga ko'ra, kognitiv lingvistika borliq, tafakkur, ong va tilning o'zaro bog'liqligidan kelib chiqib, "bilim olish, uni qayta ishlash, qayta fikrlash va uni matnlarda voqelanish jarayonlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqliklarni o'rganadi".

Kognitiv lingvistikaning bugungi kunda quyidagi asosiy yo'nalishlari mavjud:

1. Bilishning biologik nazariyasi. U biosemiotika ma'lumotlariga asoslanadi. Biosemiotika tadqiqotchilari ishlarida nafaqat inson, balki boshqa aqlli mavjudotlarning tafakkur jarayoni haqidagi fikrlar bildirilgan.
2. Bilishning biomadaniy nazariyasi. Ushbu nazariyaga ko'ra oddiy tirik mavjudotlar uchun borliq faqat jismoniy ahamiyat kasb etsa, inson uchun u ham jismoniy, ham madaniy ahamiyat kasb etadi.

Ushbu nazariyaga ko'ra inson to'rt tipdagi qadriyatlarga ega bo'ladi:

- 1) stimuly;
- 2) assotsiativ;
- 3) taqlidiy;
- 4) ramziy.

Shu tariqa, ushbu yo'nalishlarda til va bilishning biologik asoslari insonning qabul qilish, emotsional holati, empirik tajribasi nuqtai nazaridan ko'rib chiqiladi. Sun'iy intellekt yaratish nazariyasi. Bu nazariya asoslari

informatikafanidan olingan bo'lib, unda sun'iy intellekt va inson ongi, tili o'rtasidagibog'liqliklar o'rganiladi. Kognitiv semantika yo'nalishi. Kognitiv semantikani yana "tildagikonseptualizatsiya va kategorizatsiya nazariyasi" deb ham atashadi. Ushbunazariyaga ko'ra til birligining ma'nosi boshqa kognitiv strukturalarkontekstida aniqlanishi zarur, chunki ushbu bilimlar bloki mazkur ma'nolarortida turadi va ularni tushunishni ta'minlaydi".Kognitiv strukturalar kognitivsferalar, kognitiv kontekstlar (R.Lenker), mental makonlar (J.Fakonye, J.Lakoff)yoki freymalar (Ch.Filmor) deb ham ataladi. Kognitiv strukturalar "til analizigatil hamda tilga aloqasi bo'lmagan (entsiklopedik) bilimlarni jalb qilgan holdasemantik nazariyaga ko'p darajali xarakterni bahsh etishni" taqazo qiladi. Uyoki bu kognitiv strukturalarda aniqlanayotgan til birliklari ma'nolari u yoki bukonseptlar asosida shakllanadi. N.N.Boldiryovning ta'kidashicha, konseptlar tilkategoriyalari shakllanishining asosida yotadi. Shunga ko'ra til birliklari va tilkategoriyalari ma'nolarini kognitiv semantika doirasida tadqiq qilish konseptual analiz metodi asosida amalga oshiriladi. Konseptual analiz til birliklari vashakllarida ifodalangan dunyoni anglash, tushunish, fikrlash, bilish usullarini o'rganishni taqazo qiladi. Bunda ma'nolar so'zlar, so'z birikmalari, jummlalar va,umuman, matnlar bilan ifodalanishi mumkin. Konseptual analiz konseptlar mazmunini va bu bilan bir qatorda yashirin, assotsiativ va b. konseptual xarakteristikalarini aniqlaydi.

Konsept kognitiv lingvistikaning markaziy tushunchasi hisoblanadi.

Kognitiv adabiyotlarda konseptga falsafiy, psixologik, leksik kategoriya sifatida qaraladi. Kognitiv lingvistika, xususan, kognitiv semantika nuqtai nazaridan konseptning o'zi nima degan savol tug'iladi. Olimlar konseptga turlicha ta'rif berishadi. N. Tixonovanning fikricha: "Konsept grammatik kategoriya bo'lib, u o'zining formal ko'rsatkichlariga va shu kategoriya ichidagi differentsial belgilariga egadir". M.V. Nikitinning ta'kidlashicha esa: "Konsept sxolastik strukturaga ega bo'lgan diskret ko'pfaktorli mental birlikdir".

Konseptning ta'riflari haqidagi ko'plab fikrlarni umumlashtirib

quyidagilarni aytish mumkin:

1. Konsept – bu ongda "nimanidir" bir lahzada chaqnashi.

2. Konsept – bu har bir elementi abstraksiyaning yuqori darajasiga intiluvchi irearxik tashkil qilingan struktura.

3. Konsept – bu yagona butunlik bo'lib, u elementlari o'zaro bog'langan va o'zaro harakatda bo'lgan maydon tushunchasi bilan bog'lanadi.

4. Konsept – bu so'zlarning predmet yoki tushuncha sohasiga taalluqli ekanligiga qarab guruhlanishi.

5. Konsept –bu operativ mazmuniy xotira, mental leksikon, konseptual sistema va ong tili birligidir.

Konseptlarning turli tiplari mavjud:

1. Ontologik konseptlar dunyoning ontologik strukturasi tavsiflaydi: vaqt, makon, xususiyat, sifat va b. Ular qo'llanish sohasi yoki foydalanish maqsadiga ko'ra cheklanmagan.

. Pragmatik konseptlar tor qo'llanish sohasiga ega, ular bir ma'noli va bilishning qurolinsifatida xizmat qiladi

3. Aprior konseptlar. Ular his qilish tajribasini umumlashtirish, predmetlar bilan bevosita operatsiyalar o'tkazish orqali shakllanadi.

4. Lingvokreativ konseptlar til muloqoti va til birliklari semantikas orqali dunyoni bilish asosida vujudga keladi va til belgisining mazmun planinio'zida mujassamlashtiradi.

5. Konsept-universalialar. Ular dunyo xalqlariga xos konseptlardir.

6. Konsept-unikalialar. Ular faqat muayyan bir xalqqa xos konseptlardir.

Ularni etnodeymalar – **“dunyoni ko'rish konseptlari”** deb ham atashadi, chunki ularda muayyan xalqning dunyoni ko'rishini uning milliy madaniy xususiyatlari asosida amalga oshishi ifodalanadi. Bugungi kunda tilshunoslikda markaziy konseptlar sifatida so'zning asosiy grammatik sinflari bilan semantik mutanosiblikka ega bo'lgan quyidagi konseptlar ajratiladi: ob'ekt, harakat, jarayon, o'rin, makon, vaqt, tafakkur, sifat, xususiyat va b. Ma'lumki, voqelik parchasining, ma'lum hodisalarning lisoniy voqelanishi odiiy jarayon emas, bu jarayon tafakkur va lisoniy faoliyatlarning uyg'unlashuvini, hamkorlikdagi faoliyatini talab qiladi.

Kognitiv tilshunoslik sohasi vakillarining fikricha, “moddiy dunyo idroki , ayni paytda, idrok etilayotgan predmet-hodisalar haqida tushuncha tug’ilishini, keyinchalik, ushbu tushunchaning mental namuna - konsept sifatida shakllanib, moddiy ko’rinish olishini taqazo etadi”.

Konsept voqelikning tafakkurdagi in’ikosi – obrazning qayta ishlanishi natijasida hosil bo’ladi va uning bevosita lisoniy voqelanishi yana bir tafakkur akti ijrosining ta’minlanishini taqozo etadi. Ushbu akt maqsadli, ongli tafakkur faoliyatining namunasi bo’lib, u konseptlarning lisoniy voqelanish rejasini amalga oshirishni mo’ljallagan “botiniy nutq” sharoitida yuzaga keladi.

“Botiniy nutqning” kechishi ham o’ziga xos xususiyatlarga ega.

Dastlabki o’rinda uning kuzatilayotgan axborotning kognitiv asosini hosil qilishiga e’tibor berishi kerak. Nutqiy tuzilma vositasida yyetkaziladigan harqanday xabar ushbu xabar ob’ekti bo’lgan voqelik hodisasining mantiqiy kategoriallashuvi va konseptuallashuvini ta’minlovchi kognitiv asosga egadir. Boshqacha aytsak, voqelikning konseptuallashuvi va lisoniy voqelanishi bir butun jarayonning ikki ajralmas qismi bo’lib, ularning har ikkisida ham so’zlovchi (muallif)ning hayotiy tajribasi, bilim doirasi, maqsad va qiziqishlari o’z ifodasini topadi. Bunda lisoniy qurilma va birliklar “ob’ektiv borliq va shaxs ongi, uning hayotiy faoliyati davomida hosil bo’ladigan tajribasi o’rtasidagi bog’lovchi halqa rolini o’ynaydi”.

Yuqoridagilardan ma’lum bo’ladiki, konseptuallashuv jarayonida matn yaratilishi uchun poydevor yaratiladi. Zero, matn ma’lum bir voqelikning inson tomonidan idrok etilishi natijasida yuzaga keladigan hodisadir. Voqelikni idrok etish uchun esa inson uning mohiyatini to’la tasavvur etishi, boshqacha aytganda, to’g’ri «hazm qila bilmog’i» yoki anglamog’i lozim. Faqat shundagina mazmunan aniq va tugal matn yaratiladi. Demak, matn, shubhasiz, kognitiv tilshunoslikiiig tahlil ob’ekti bo’la oladi hamda ushbuyo’nalish doirasida uning mazmuniga xos botiniy xususiyatlar, konseptuallashuv jarayonida hosil bo’ladigan mental qolipining tuzilishi o’rganiladi.

Matnning kognitiv tahlil ob’ekti sifatida e’tirof etilishi bevosita uning tabiati haqidagi tasavvurlarning ham ma’lum darajada o’zgarishiga sabab bo’ladi. Natijada

I.P.Susovning matn tabiatan ikki jihatga ega («tekst dvulik po svoey prirode»)degan tavsifi o'z paytida (o'tgan asrning 80-yillarida) qanchalik to'g'ri deb qabul qilingan bo'lishiga qaramasdan, bu qarash hozirgi kunda tadqiqotchilarni qoniqtirmay qo'ydi. Matnning ko'p jihatli va ko'p qirrali hodisa ekanligi tinimsiz ta'kidlanayotgan bir paytda, biz matnning lisoniy voqelikda tutgan o'rnini tasvirlovchi zanjirga yana bir xalqani qo'shishni ma'qul ko'rgan bo'lar edik va bu xalqa voqelik haqidagi tasavvurning konseptuallashuvini aks ettiradi.

Kognitiv tilshunoslikka xos tadqiq uslublarining matn tahliliga tatbiq qilinishi, birinchi navbatda, matnning kommunikativ tizim va umuman, insonning borliq haqidagi bilimining asosiy unsuri sifatida e'tirof etilishi bilan bog'liqdir. Bunday e'tirof esa, o'z navbatida, tadqiqotchilar e'tiborini matnning ichki tuzilishi, strukturaviy xususiyatlaridan uning yaratilishi va mazmunan idrok etilishi (retsipient tomonidan qabul qilinishi) jarayoniga ko'chishiga sabab bo'ladi.

Kognitiv tilshunoslikning asosiy vazifasini «lisoniy jarayonlar, lisoniy birlik va kategoriya kabilarni ularning xotira, tasavvur, idrok, ong bilan munosabatida o'rganish» deb bilgan E.S.Kubryakova keyinchalik ushbu vazifani «lisoniy strukturalar va bilim strukturasi o'rtasida mavjud bo'lgan doimiy muqobillikni yoritish» darajasigacha kengaytirdi. Matn, eng muhim lisoniy struktura bo'lish bilan bir qatorda, boshqa har qanday tuzilmaning

Darhaqiqat, matn tilshunosligining taraqqiyoti davrida «matn» tushunchasi ancha tor ma'noda talqin qilinib, tadqiqotchilar e'tiborini asosan uning moddiy jihatlari tortib kelayotgan edi. Matn yaratilishi va idrokini uzluksiz jarayon sifatida tasavvur qilish lozimligi faqat tilshunoslik fanida yuzaga kelgan «kognitiv inqilob» sharoitidagina ayon bo'ldi. Ma'lumki, kommunikatsiya statika va dinamika, jarayon va natija qarama-qarshiligi hamda mushtarakligida kechadi. Xuddi shu tarzda qarama-qarshiliklar va munosabatlar tizimida yaratiladigan matni haqiqiy kommunikativ birlik sifatida e'tirof etib, uning kategorial xususiyatlari haqida so'z yuritishimiz mumkin. Shu jihatdan, ayrim tilshunoslarning

«matn nihoyatda mavhum xaraktyerga ega va uni kommunikativ faoliyatdan ajratib olish mumkin»degan da'volari, bizningcha, g'ayritabiiydir. Kichik hajmdagi matnlarning mazmuniy xususiyatlari bilan shug'ullangan tverlik olim V.I.Yuganovning ushbu da'vosi bir qarashda asoslidek tuyuladi, chunki qayta takrorlanish va o'qish imkoniyatiga ega bo'lgan yozma (ayniqsa, badiiy) matn nutq vaziyati bilan bevosita bog'liqlik xususiyatiga ega emasdek ko'rinadi. Ammo yozma matn ham muloqot vaziyatiga aloqadorlik xususiyatini hech qachon yo'qotmaydi. Ma'lumki, situativlik matnning doimiy kategorial belgilaridan biridir va buning isbotini biz dastlab matnning qayta takrorlanishi sharoitlarida o'z asosiy kommunikativ mazmunini saqlab qolishida yaqqol ko'ramiz. Har qanday muloqot sharoitida matn vositasida uzatilayotgan axborotning qiymati saqlanadi, zero, uzatilayotgan axborotga nisbatan qo'yiladigan asosiy talab - uning ushbu muloqot sharoiti uchun yangiligi, muhimligidir. Albatta, bunda matn muallifi axborotni uzatishning eng ma'qul usulini topishi zarur bo'lganidek, retsipient ham matn tuzilishiga tayangai holda muallif unga qanday axborotni yetkazish niyatida ekanligini zukkolik bilan to'g'ri anglay bilishi muhimdir. Nutqiy tuzilmalarniig matn maqomini olishida kommunikativ faoliyat ishtirokchilarining munosabati ham muhimligini unutmaslik lozim.

Matn va diskurs munosabati masalasi

A.A.Zalevskayaning sharhicha, har qanday nutq qatori uning faqat muallif yoki retsipient bilan munosabatda faollashuvidagina matn bo'la oladi. Matn inson tomonidan yaratiladi va idrok etiladi, insonning ishtirokisiz tasavvur qilinayotgan matn faqatgina «moddiy gavda» ko'rinishini oladi . Taniqli psixolingvist A.A.Zalevskayaning fikriga batamom qo'shilishni istasak ham, lekin bir kichik e'tirozimizni bildirmaslikning imkoni yo'q. Haqiqatdan ham matn unga mazmun bag'ishlovchi faoliyatning ijrochisi (muallif yoki retsipient)siz hech qanday qiymatga (olimaning ta'biricha - «ichki quvvatga») ega bo'lmaydi, ammo matnning o'z-o'zicha, alohida «gavda» (telo teksta) sifatida mavjud bo'lishini tasavvur qilish qiyinligini olima unutgandek ko'rinadi. Balki, bu uning tilshunoslikda hanuz hukmron bo'lib turgan matn va diskurs hodisalarini keskin

qarama-karshi qo'yish an'anasidan to'liq voz kecha olmaganidan bo'lsa kerak. Bu ikki hodisaning ziddiyatini faollik - nafaollik, dinamik-statik xususiyatlarning qarama-qarshiligi bilan bog'lashga intilayotganlar oxir-oqibatda matnni yozma nutq mahsuli, diskursni esa og'zaki muloqot mahsuli sifatida ta'riflashga harakat qiladilar. Ushbu yo'sindagi talqin, so'zsiz, ularning birini (matnni) moddiy hosila, ikkinchisini (diskurs) esa nomoddiy natija ko'rinishida tasavvur qilishga undaydi. Matn va diskurs munosabati masalasi hamda ularning ziddiyatli hodisalar sifatida talqin qilinishi matn tilshunosligi taraqqiyoti uchun noxush holatlar tug'dirishi mumkinligi tilshunoslarimiz tomonidan e'tirof etilgan. Biz ham ularning fikrlarini quvvatlagan holda matnning yozma va og'zaki ko'rinishda mavjud bo'lishini batamom e'tirof etamiz. Shu bilan birgalikda, «**diskurs**» va «**matn**» tushunchalarini to'liq muqobillikka ega bo'lgan sinonim tushunchalar sifatida qarash ham unchalik ma'qul bo'lmasa kerak. Bizningcha, Sh.Safarovning «diskurs inson ongli faoliyatining bir turi, turkumi bo'lsa, matn uning ko'rinishidir», degan ta'rifiga yergashgan ma'qul.

Matn yaratilishini diskursiv faoliyatning bir turi sifatida talqin qilish ushbu hodisaning dinamik xususiyatlariga, jarayonli belgilariga ko'proq etibor qaratishni talab qiladi. Matnni o'zgarmas, harakatsiz, turg'un xususiyatlarga ega bo'lgan hodisa ko'rinishida tasavvur qilib bo'lmaydi. Matnning maqomini, qategorial belgilarini aniqlash uchun uning ongli diskursiv faoliyat bilan bog'liq tomonlariga e'tiborni kuchaytirish lozim bo'ladi. Lisoniy hodisalar talqiniga yangicha yondashuv natijasida tadqiq maqsadi matn yaratishning inson kognitiv qobiliyati bilan bog'liq jihatlarini aniqlash sari yo'naladi. Sub'ektning kommunikativ-ijtimoiy hamda til tizimi qoida-normalariga mos ravishda matn yaratish va uni mazmunan idrok etish qobiliyati nutqiy tafakkur faoliyatining samarasini ta'minlovchi asosiy omillardandir. Kognitiv tilshunoslikning vazifalari, uning asosiy tamoyillarini aniqlashga harakat qilgan V.Z. Demyankov ushbu yo'nalishdagi tahlilda «kognitiv muqobillik» va «bevosita muqobillik» tamoyillarini farqlash muhimligini alohida uqtiradi. «Kognitiv muqobillik», olimning ta'biricha, biror bir birlik haqida tasavvur qilish yoki uning haqida fikr yuritishda ushbu

birlikning qanday idrok etilishi va hosil bo'lgan tushunchaning qay darajada kognitiv voqelikka mos kelishini anglatadi. Ushbu tamoyil «bevosita muqobillik» holatiga ziddir. Binobarin, oxirgi tamoyilga binoan lisoniy voqelanish unsurlarining mazmuni bevosita voqelikdagi hodisalar mohiyatiga mos keladi. Ushbuning izohini ingliz kognitologi R.Uilinski keltirgan «Bruklin ko'prigi» so'z birikmasi tahlilida ham ko'rish mumkin. Bu lisoniy birlikning referenti ob'ektiv borliqdagi predmetdir. Bu predmet ko'prik ko'rinishiga ega va uni «Bruklin ko'prigi» deb atashadi (chunki u Bruklinda qurilgan). Agarda kognitiv muqobillik tamoyiliga amal qiladigan bo'lsak, «Bruklin ko'prigi» atamasi real borliqdagi aniq bir predmet bilan bog'liq emas, balki bu voqelikning kognitiv tasavvurdagi mohiyatiga yoki boshqacha ifodalaydigan bo'lsak, voqelikning tafakkurda qoldirgan «izi»ga mos kelishi kerak.

«**Kognitiv muqobillik**» tamoyiliga amal qilish nutqiy tuzilmalar (shu jumladan, matn) mohiyati, mazmunini bevosita «lisoniy birlik (belgi) - ma'no» zanjirida talqin qilish an'anasidan voz kechishga undaydi. Lekin shuning bilan birgalikda, kognitiv-diskursiv tahlil amallari hech qachon lisoniy voqelikni inkor etmaydi, chunki har qanday kognitiv tuzilma negizida lisoniy birliklarga xos ma'no ifodasi yotadi. So'zsiz, matn va boshqa lisoniy hodisalar tuzilishini to'liq tasavvur etish uchun ularning denotativ-referentiv tavsifi yetapli emas. Bu holatda matnning strukturaviy tuzilishi ahamiyatsizdek ko'rinadi. Ammo lisoniy belgining ixtiyoriyligi haqidagi Sossyur g'oyasini absolyutlashtirish yo'lidagi bunday qarashning samarasiz ekanligini semiotiklarning o'zlari ham allaqachon sezishgan. «Lison, -deb yozadi Ya.Kelemen, -faqatgina bilim to'plash va uzatish vositasigina bo'lib qolmasdan, balki ushbu bilimni o'ziga xos strukturalar asosida moddiylashtirish vositasi hamdir, shuningdek, u hayotning ma'lum shakli, uslubidir».

Kognitiv tahlil vazifalari va metodlarini chegaralash istagida bo'lgan yana bir rus tilshunosi **A.E.Kibrikning e'tirof etishicha**, «kognitiv tilshunoslik, uning har qanday ko'rinishdagi talqini va tavsifida kognitiv strukturalarning tilga nisbatan birlamchi ahamiyatga molik bo'lishiga tayanadi va bunda til birliklari va qoidalari kognitiv struktura va jarayonlarning grammatik tus olishi ko'rinishida «bayon»,

«izoh», «xulosa» kabilar) tashqari, u yoki bu belgining matnning kompozitsion tartibiga ta'sirini ham aniqlash imkoni tug'iladi. Bu ta'sirning darajasi esa turli matnlarda turlicha bo'ladi. Matnlarning tuzilishidagi farqlar va ularda lisoniy unsurlarning qo'llanish darajasini kuzatgan uslubshunoslar turg'un va erkin strukturali matnlarni farqlashni tavsiya qiladilar. Har ikkala tipdagi matn uchun uning kompozitsion va mazmuniy strukturasi ifodalovchi vositalarni o'zgarib turish xususiyati xosdir. Lekin bunday o'zgarishlar (variativlik)ning miqyosi turg'un strukturali matnlarda, erkin strukturali matnlarga nisbatan bir oz chegaralangan. Uslubshunos N.M.Razinkinaning ta'kidlashicha, matn kompozitsion tuzilishida kuzatiladigan variativlikning miqyosi yoki darajasi matn mazmunida ifodalanayotgan mazmuniy-faktual axborot xarakteri bilan bog'liqdir. Ma'lumki, matn tarkibida doimo zohiriy ifoda topadigan mazmuniyfaktual axborot «atrofimizdagi haqiqiy yoki tasavvurdagi olamda bo'lgan, bo'layotgan, bo'ladigan faktlar, voqea-hodisalar, jarayonlar haqidagi axborotlarki o'z ichiga oladi». Turg'un strukturali matnlarda bu turdagi axborot ko'pincha bevosita voqelik bilan bog'liq bo'lib, u ushbu voqelik haqidagi aniq ma'lumotlarni ifodalaydi. Shu sababli bayon qilinayotgan voqealar tipiklashtirilib, ular qat'iy stereotip-qoliplar qamroviga olinadi. Erkin strukturali matnlarda esa mazmuniy - faktual axborot bayoni unchalik qat'iy qoliplashmagan, ularning variativlik imkoniyatlari kengroq. Bunday holatni biz, ayniqsa, badiiy matnlar kompozitsion tuzilishida aniqroq kuzatamiz. Yagona bir syujet yoki fabulani turli strukturaviy hajmda yoki kompozitsion tuzilishda bayon qilish imkoniyatiga ega bo'lgan badiiy matnda mazmuniy-faktual informatsiya asar mazmunining denotativ-referentiv qobig'ini tashkil qiladi. Badiiy asar mazmunining asosiy negizini esa «badiiy-estetik xarakterdagi axborot», ya'ni mazmuniy-faktual informatsiya vositalari bilan tavsiflangan hodisalar o'rtasidagi munosabatlarning muallif nigohidagi talqini, bu munosabatlarning sabab-oqibat aloqalari, ularning ijtimoiy-madaniy qimmatining muallif tomonidan anglashinilishini taqozo etuvchi mazmuniy konseptual axborot tashkil qiladi. Qisqaroq aytadigan bo'lsak, mazmuniykonseptual axborot sub'ektning borliqni idrok etishi natijasida hosil bo'lgan g'oya, fikrning individual talqinidir. Ushbu turdagi axborot ilmiyommabop

asarlar matnida aniq lisoniy birliklar vositasida ifodalanadi, badiiy matnda esa mazmuniy-konseptual axborotni anglash uchun u «to'g'ridan-to'g'ri verbal ifodalamaganligi uchun» retsipient tafakkur yuritishi, ya'ni «aqliy faoliyat» amalini bajarishi lozim bo'ladi. Haqiqatdan ham badiiy asar mazmunining negizini tashkil qiluvchi mazmuniy-konseptual axborot zohiran ifodalanmaydi. Bunday axborotning botiniy ko'rinishda bo'lishini ruhshunoslar ham e'tirof etishgan. «Har qanday hikoya (povest', roman)ning mazmuni, -deb yozadi ruhshunos V.V.Znakov, - predmetlik ma'nosida, «fabula»sida emas, balki o'quvchining o'zi o'qigan manbaga munosabatida mavjuddir. Bu munosabatlar o'quvchining talqinida, xulosalarida, taxminlarida, savollarga javob izlashida namoyon bo'ladi». Ammo badiiy matn mazmunining, unda ma'lum qilinayotgan axborotning estetik qimmatini faqatgina o'quvchining idroki, tafakkur qobiliyatiga bog'lasak, mazmunni butunlay sub'ektivlik bilan bog'lab qo'yishimiz mumkin. To'g'ri, matn mazmunini «chaqish» retsipientning vazifasi bo'lganidek, uning mazmuniy yaxlitligini (kogerentligini) va tugalligini aniqlash ham uning (retsipientning) ixtiyoridadir. Biroq, u bajarayotgan har qanday kognitiv amallarni harakatga keltiruvchi «kuch», mexanizm matnning o'zi, uning kompozitsion qurilishidir.

Matn ma'lum strukturaviy ko'rinishga ega bo'lmasa, o'quvchida axborotni qabul qilish imkoniyati bo'lmaydi. Matnning mazmuniy yaxlitligi va kogerentligining o'zi kognitiv jarayondir, bu jarayonda retsipient matn kommunikativ-pragmatik maqsadini anglash majburiyatini olgan faol shaxs hisoblanadi.

Matn va uni idrok etuvchi shaxs o'rtasidagi munosabat ikki tomonlama kechadigan dialektik jarayondir. Bu jarayonda o'quvchi, bir tomondan, nutqiy axborot adresanti bo'lsa, ikkinchi tomondan, ushbu axborotni anglovchi va tahlil qiluvchi sub'ektdir. Matn ma'lum kommunikativ maqsadni ko'zlagan holda tartiblashtirilgan lisoniy struktura bo'lib, uning tarkibida adresantning mazmun idrokiga yo'naltirilgan aqliy intellektual faoliyatiga ta'sir o'tkazuvchi turli kommunikativ-lisoniy «ishoralar ham mavjud bo'ladi. Yuqorida bayon qilinganlardan shunday xulosa qilish mumkinki, matnning kategorial xususiyatlarini

uni yaratuvchi va idrok etuvchi sub'ektlarsiz o'rganib bo'lmaydi. Matn mazmuni ikki tomonlama faoliyat natijasi bo'lganligi uchun ham uning kategorial belgilari muallif va adresant tomonidan bir xilda idrok etilishi lozim. Faqat shu yo'sindagina u yoki bu belgining barqarorlik darajasini aniqlash imkoni tug'iladi. Kichik hajmdagi matnlarni kognitiv tahlil etgan E.V.Levchenko matnning birlamchi, barqaror, muallif va o'quvchi ta'siridan xoli xususiyatlari bilan bir qatorda, uning ikkilamchi, sub'ektning bevosita matn bilan munosabatta kirishishi jarayonida yuzaga keladigan xususiyatlari ham mavjudligiga e'tibor qaratish lozimligini uqtirgan. Albatta, matn maqomini aniqlash, uning nutqiy muloqot jarayonida, tutgan mavqeni bilish uchun ushbu hodisaga xos bo'lgan barcha turdagi xususiyat va belgilarni o'rganish lozimligini hech kim inkor qilmaydi. Lekin tahlil qilinayotgan hodisaning ob'ektiv xususiyatini aks ettirmaydigan, o'tkinchi belgilar ko'p holatlarda sub'ekt tomonidan ushbu hodisaga beixtiyor qo'shib berilayotgan nisbat bo'lishi ham mumkin. Kategorial belgi uchun asosiy ko'rsatkichlar barqarorlik, turg'unlik, barcha sharoitlarda takrorlana olish xususiyatidir. Demak, matn tahliliga kognitiv-diskursiv tilshunoslik nuqtai nazaridan yondashadigan bo'lsak, uning mohiyatini invariant xususiyatlar zanjiri belgilashini e'tirof etishimiz lozim. Xususiyatlarning invariantligi matn yaratilishi va idroki jarayonlarining uzluksizligini, ularning davomiyligi va biri-ikkinchisini taqozo etishini ta'minlaydi. Invariantlikning turli sharoitlarda (matnlarda) voqelanishi esa uning variantli qo'llanish imkoniyatlarini namoyon qiladi. Invariantlik va variantlik xususiyatlari munosabatlarining uzviyligi sharhini A. Hojiyevning yaqinda boshqa turdagi lisoniy hodisalar mohiyatidagi umumiylik va xususiylik belgilari muqoyasasida bildirgan fikrida ham ko'ramiz. Olimning qaydicha, paradigma - bir umumiy ma'nosida birlashuvchi xususiy ma'noli shakllar guruhidir. Bu guruh va unga xos ma'no tilning ma'lum sathiga xos kategoriya hisoblanadi. Masalan, fe'lning zamon kategoriyasi harakatning nutq paytiga munosabatini ifodalaydi. Zamon shakllarining hammasi uchun umumiy bo'lgan birlashgan xususiyat ushbu kategoriyaning tub mohiyatini belgilaydi.

«Zamonning har bir turi esa, - davom etadi A.Hojiyev, - o'zicha umumiylik va xususiyliklarga ega. Masalan, o'tgan zamon fe'li harakatning nutq momentigacha

bo'lishini bildiradi - bu umumiylik - o'tgan zamon fe'lining mohiyati. Bu zamonning shakllari ana shu umumiy ma'no asosida birlashadi. Har biri esa o'ziga xos xususiyatga ega». Olimning umumiylik va xususiylik munosabati haqida bildirayotgan ushbu sharhi matnning kategorial va nokategorial belgilarini farqlash tamoyillariga to'la mos keladi. Bundan tashqari, kategorial belgilar majmuasi matnning barcha turlariga bir xilda xos bo'lishini ham tasavvur qilish qiyin. Binobarin, badiiy matn uchun xos bo'lgan belgilar ish yuritish hujjatlari matnida unchalik aniq ko'rinishga ega bo'lmasligi mumkin. Shuningdek, ayrim belgilar ma'lum turdagi matnlarda yetakchilik qilsa, boshqalari esa ularni kuchaytirish, aniqlashtirish vazifasini ado etishadi. Shu sababli bo'lsa kerak, ayrim nemis kognitologlari kategorial belgilarning matnda tartib topishini gradual hodisa sifatida qarashni lozim deb hisoblaydilar. Bundan ikki-uch yil oldin kognitiv tilshunoslikka oid o'quv qo'llanmalaridan birining muallifi «kognitiv tilshunoslik til tahlilini nutq tahlili bilan to'ldiradi» degan g'oyani isbotlamoqchi bo'ldi. Biz nutq lingvistikasini til tizimi tahlilining oddiy ilovasi sifatida tavsiflashdan yiroqmiz. Zotan, kognitiv tahlilda nutqiy faoliyat jarayonini ta'minlovchi vositalar, uni harakatga keltiruvchi mexanizmlarni aniqlash maqsadi ko'zlanadi. Kognitiv tilshunoslikning predmeti va vazifalarini aniqlash vazifasini ko'zlayotgan tadqiqotchilar muhokama qilinadigan asosiy muammo insonning voqelik bilan munosabatida hosil bo'lgan tajriba-bilimning kategoriallasuvi ekanligini ta'kidlashmoqda. Voqelikni idrok etish jarayonida hosil qilingan bilimni kategoriyalashtirish qabul qilingan (o'zlashtirilgan) axborotni tartiblashtirish usulidir. Ushbu usulning amalga oshishida esa til tizimi birliklaridan foydalaniladi. Voqelikni idrok etish yo'li bilai hosil bo'ladigan mental birlik - konseptdir.

Konsept voqea-hodisalarni tipiklashtirish, modellashtirish xizmatini o'tab, tafakkur va lisoniy faoliyatlarni tutashtiradi va ularni ob'ektiv borliqni bilish jarayonida o'zaro birlashtiradi. Bilish jarayonining bir tekis kechmasligi ma'lum, bu jarayonda predmet-hodisalarning umumiy va xususiy belgilarini taqqoslash asosida ularni farqlamasdan turib, kategoriyalashtirib bo'lmaydi. Bu turdagi mental amallarning bajarilishi negizida kognitiv strukturalar majmuasi turadi. Kognitiv

strukturalar (tuzilmalar) mohiyatan voqelikni idrok etish va shu idrok jarayonida yuzaga kelgan bilim (axborot)ni lisoniy voqelantirishning ramziy sxemasidir. Shunga binoan lisoniy tafakkur faoliyatida til tizimining rolini aniq tasavvur qilish imkonini beradigan kognitiv strukturalar - freym, skrept, ssenariy, propozitsiya kabilarning o'rganilishi til va nutq hodisalarining ilmiy-nazariy tahlilida muhim o'rinni egallashiga aminmiz. Bunday yondashuvning istiqboli, ayniqsa, matn tilshunosligi sohasida yaqqol ko'rinadi. Matnning yaratilishi va qabul qilinishi bosqichlarida voqelikda sodir bo'layotgan hodisa kognitiv obrazining tasavvur qilinishi birlamchi shartdir. Bu obraz, o'z navbatida, umumiy propozitsiyalardan tashqari, kommunikativ faoliyatni shartlovchi muloqot qoidalari, normasi, an'anasi kabi bilimlar zahirasini ham qamrab oladi. Ushbu bilimning barchasi freym yoki ssenariy ko'rinishida ifoda topadi. Freym inson ongida mavjud bo'lgan (aniqrog'i, yuzaga keladigan) kognitiv strukturadir. Voqelikdagi tipik vaziyatlar haqidagi ma'lumotga ega bo'lish natijasida shakllanadigan matn freymi markazida asosiy mavzu yoki makropropozitsiya tursa, uning tugunlari (slotlari) esa alohida propozitsiyalar bilan to'ldiriladi. Matn kommunikativpragmatik mazmunini anglash maqsadida bajariladigan kognitiv amallar negizida xuddi shu turdagi mental strukturalar tarkibiy qismlarining o'zaro munosabatlarini aniqlash vazifasi turadi.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. Kognitiv lingvistikaning ob'ekti nima?
2. Kognitiv lingvistikaning predmeti nima?
3. Kognitiv lingvistikaning qanday yo'nalishlari bor?
4. Konsept nima?
5. Konseptosfera nima?
6. Matnning yaratilishi va qabul qilinishi bosqichlarida voqelikda sodir bo'layotgan hodisa kognitiv obrazining tasavvur qilinishida qanday ahamiyatga ega?
7. «Kognitiv muqobillik» tamoyili qanday tamoyil?
8. Konseptuallashtirish jarayoni matn yaratilishi uchun qanday ahamiyatga ega?
